



HAMKORLIK

RIM YO'LLARI SAMARQANDGA ELTADI

Mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Meloni Samarqand shahrida kutib olindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy qarshi oldi.

Tantanalik kutib olish marosimidan so'ng Samarqand shahridagi Kongress markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Melonining yuzma-yuz hamda rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari bo'lib o'tdi.

Ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlari yanada rivojlantirish va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Tomonlar amaliy natijalarga e'tibor qaratgan holda "Markaziy Osiyo – Italiya" sammitini o'tkazish muhimligini ta'kidlashdi. Davlatimiz rahbari Italiyaning yetakchi kompaniyalari bilan Texnologik sheriklik dasturini ishga tushirishni taklif qildi.

Xususiy tadbirkorlikning innovatsion loyihalari, o'ta muhim minerallar va qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, avtomobilsozlik uchun butlovchi qismlar, elektrotexnika, energetika, oziq-ovqat, farmatsevtika, qurilish sanoatida yuqori



texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish, to'qimachilik, charm, mebelsozlik va boshqa tarmoqlar uchun dizayn markazlarini tashkil etish ustuvor yo'nalishlar sifatida qayd etildi.

Kompleks "Yo'l xaritasi" asosida qishloq xo'jaligida keng ko'lamlilik ilmiy-texnologik hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Uzun, zaytun, za'faron, sarsabil yetishtirish, agrolaboratoriyalar tashkil etish, biotexnologiyalarni rivojlantirish va agrosug'urtani joriy qilish bo'yicha kooperatsiya istiqbollari qayd etildi.

Yangi loyihalarni ilgari surish maqsadida Hukumatlararo guruh ishini qayta

tiklash va uning yig'ilishini biznes forumi bilan birga o'tkazishga kelishib olindi. Ta'lim sohasida mamlakatimizda Tushiya universiteti filialini, Piza, Trento, Roma Tre va Ka-Foskari universitetlari bilan ikki tomonlama diplom dasturlarini ishga tushirish rejalari qo'llab-quvvatlandi. O'zbekistonda Italiya madaniyati kunlarini o'tkazishga kelishib olindi. Tashrif doirasida mehnat migratsiyasi sohasida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan bitim imzolangan mamnuniyat bilan qayd etildi. Uchrashuv yakuni-da erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha kompleks "Yo'l xaritasi"ni

tayyorlash to'g'risida qaror qabul qilindi.

Oliy darajadagi O'zbekiston-Italiya muzokaralari yakunida xalqaro Kongress markazida Samarqand shahridagi ko'chaga Rim shahri hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan bitim imzolangan mamnuniyat bilan qayd etildi. Uchrashuv yakuni-da erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha kompleks "Yo'l xaritasi"ni

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu qaror chuqur tarixiy va madaniy aloqalar, strategik sheriklik munosabatlarning hozirgi yuksak darajasini inobatga olgan holda, shuningdek, O'zbekiston va Italiya xalqlari o'rtasidagi do'stlik va o'zaro hurmat ramzi sifatida qabul qilinganini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Meloni Samarqand shahridagi Kongress markazida tashkil etilgan "O'zbekiston va Italiya: sivilizatsiyalar muloqoti" ko'rgazmasini tomosha qildilar.

Noyob ekspozitsiya ikki mamlakat o'rtasidagi chuqur tarixiy, ilmiy va madaniy aloqalarga bag'ishlangan. U "Rim va Kushon imperiyalarining savdo munosabatlari", "Birinchi Uyg'o'nish davri", "Marko Polo", "Amir Temur", "Mirzo Ulug'bek" va "Zahiriddin Muhammad Bobur", "XIX asrda O'zbekistondagi italiyaliklar", "Ikkinchi jahon urushida o'zbekistonliklarning Italiyani ozod qilishga qo'shgan hisssasi", "O'zbekiston va Italiya: madaniy merosni asrash" kabi 9 ta mavzuli bo'limdan tashkil topgan.

Mehmonlarga Afrosiyobning "Samarqand hukmdori tomonidan elchilarni qabul qilish marosimi" nomli devoriy suratning mashhur italiyalik usta Mauro Pellitsonni tomonidan Florensiya mozaikasi uslubida ishlangan noyob nusxasi namoyish etildi.

Shuningdek, yetakchilar turli tarixiy yodgorliklar, grafik tasvirlar, qo'lyozma va miniatyuralar, nodir adabiy nashrlar, haykallar, arxiv suratlari va hujjatlari bilan tanishdilar.

O'ZA.

ABADIY ADABIYOT



"QOYILMISAN INSONGA, ZAMIN?!"

Bir kun choshgohda do'stlarim menga shu xabarni yetkazdi: "Olmaotada "Az i Ya"ning ellik yilligi nishonlanarkan. Unda O'ljas Sulaymonning shaxsan o'zi ham qatnasharkan. Dunyoning manaman degan olimlari to'planarkan". Shu on Bilga To'nyuquqday sapchib o'rnimdan turdim. Ochig'i, "Bu gapni eshitib, tunlar uyquq kelmadi. Kunduz o'tirgim kelmadi". Undan so'ng Bosh muharririmga iltimos qildim: "Boraylik. Yozaylik. Bosaylik". Ruxsat tegdi. Uchib ketdim..

Xayolimda tanish satrlar aylanadi: "Men tungi shaharlar uzra suzaman..."

Istarali qizning ovozi jaranglaydi: "Hurmatli yo'lovchilar, samolyotimiz Olmaota shahridagi xalqaro aeroportga qo'nishga hozirlik ko'rmoqda..."

(Davomi 2-sahifada.)

TAQDIMOT

"VATAN MANZUMASI"



Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, eng avvalo, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularning yurtga sadoqatini, jamiyat oldidagi mas'uliyatini mustahkamlashga qaratilgan bilan ham ahamiyatlidir.

Bu borada poytaxtimizdagi "Turkiston" san'at saroyida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Vatan manzumasi" tadbirining o'zni beqiyos. Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur ma'rifiy loyiha davomida tashkilotdagi dasturi "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" degan ezuq g'oya asosida tayyorlandi. Uning shakli va mazmuni jihatdan yanada boyib, ko'lami va qamrovi kengaygani e'tiborga loyiq.

(Davomi 2-sahifada.)

ORAMIZDAGI ODAMLAR

DARYO BO'YIDAGI O'YLAR



Taniqli sharqshunos olim, akademik Ne'matilla Ibrohimovning qutlug' yoshi sabab u kishi haqida bir nima qoralashga jazm qildim. Chunki anchadan beri taniyman, ko'p bor suhbatdosh bo'lganman. Dastlabki satrlar qog'ozga tushib-tushmay, negadir xayolim chalg'idi, ustoz Erkin Vohidov aytib bergan bir muhim gapni esladim.

"Alixonto'ra Sog'unliy domla ishtirokida bir to'p ziyolilar har oyda davra qurib turardik. "Mulla

bilganini o'qiydi" deganlaridek, hamma o'zicha gap boshlar, suhbatimiz ba'zan foydasiz bahs, futbol, savdo-sotiq, uy-joy yumushlariga burilib ketardi. Bundan ajablangan domla bir kuni menga: "Erkinjon, hammalari munavvar odamlar, behuda gap-bozliq qilgandan ko'ra, bilma-ganlarini mendan so'rashmaydimi, bilganimcha aytib bermaymanmi?" deb qoldilar o'kinganday bo'lib. Bu gapni darhol jo'raboshimizga yetkazdim. Keyingi gal domlaga bir-ikkita savol berishni mo'ljal qildik. Belgilangan kuni yig'ildik. Suhbat boshlandi, ammo... yana o'sha eski mavzular.

(Davomi 5-sahifada.)

GURUNG



"RASSOM – SHAKL VA HOLAT SHOIRIDIR"

O'zbek Milliy akademik drama teatri bosh rassomi, O'zbekiston san'at arbobi Baxtiyor TO'RAYEV bilan suhbat

– Baxtiyor aka, "rassom" so'zi juda qadimiy bo'lib, "dono va chaqqon qo'l" degan ma'noni anglatar ekan. Buni qarangki, dastlab qushning qanoti tasvirini chizib, so'ng uni yasab samoga parvoz qilgan Dedal insoniyat tarixida birinchi afsonaviy rassom sifatida qabul qilingan. Siz bir suhbatigizda "O'zim qurgan imoratda o'zim ham yashagim keladi", degan edingiz. Siz Mannon Majidiy nomli teatr hovlisida

o'ynab o'sgan kattaqo'rg'onlik Baxtiyor ismi bolakaydan uzoq yillik mehnat-mashaqqatlar tufayli iste'dodli musavvir, sahna rassomi va rejissyor Baxtiyor To'rayevga aylandigiz. Aytgich, yaratayotgan asar, obraz, eskizlaringizda o'zingizni, o'zligingizni his qila olyapsizmi?

(Davomi 3-sahifada.)

AYOZ, CHORIG'INGNI UNUTMA!



Katta avlod vakillari ongiga singdirilgan: "...oktyabr inqilobigacha Turkiston aholisining atigi ikki foizigina savodli edi" mazmunidagi ma'lumot barcha maktab va oliy o'quv yurtlarining darsliklariga kiritilgan edi. Bu katta yolg'on ortida yana "...sovetlar Turkistonga madaniyat, ma'rifat olib keldi" degan iddao ham bo'lardi.

Necha avlod shu yolg'onlarga ishonib yashadi. Xonlik davrida qaysidir madrasani bitirib oxun darajasiga yetgan, bir emas uchta: arab, fors va turkiy tilni suvdek biladigan kishilar ham ularning nazdida "savodsiz"lardan hisoblanardi.

Negaki, ular kirill alifbosida o'qish va yozishni bilmas edi-da!

Ammo boshqa haqiqatlar ham bor. Shu o'rinda "sopini o'zidan chiqarish"ga – da'vogarlarni o'z tilidan tutish usuliga o'tamiz. Qanday qilib deysizmi? Mana...

O'tgan asrning elliginch yillari oxirida nashr qilingan ko'p jildli "O'zbekiston SSR tarixi"ning ikkinchi qismi ikkinchi kitobining o'ninchi bobida keltirilgan fakt va raqamlarga bir qur nazar tashlasak, sovet tarixchilari o'zlarini o'zlari inkor qilganligiga guvoh bo'lamiz.

Ushbu bobning "Xalq maorifi" bo'limidan o'qiydiz: "Farg'ona va Samarqand oblastlarida 1894-yilda 3498 maktab va madrasa bor edi.

(Davomi 5-sahifada.)



“VATAN MANZUMASI”

YANA YURT BO‘YLAYDI

Boshlanishi 1-sahifada.

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa hamda Madaniyat vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Kinematografiya agentligi hamkorligida tashkil etilgan anjumanda vatanparvarlik, mardlik va jasorat, tinchlik va osoyishtalikni asrab-avaylash, el-yurt farovonligi yo‘lida kamrabastalik singari fazilatlar o‘z ifodasini topgan.

– “Vatan manzumasi” yosh o‘g‘il-qizlarni mohiyatan vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda, – deydi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Haydarali Qosimov. – Dastur nafaqat yoshlar, balki ota-onalar, ustozlar, harbiy tarbiyachilar bilan ham uzviy bog‘langan mukammal g‘oyaviy tizimga ega.

Dastur aniq g‘oya va ssenariy asosida tayyorlangan badiiy-kompozitsion chiqishlar bilan tomoshabinlarda yanada qiziqish uyg‘otdi. Ayniqsa, tadbir doirasida poytaxtimizdagi G‘alaba bog‘ida barpo etilgan “Millat fidoyilari” yodgorlik majmuasi va “Xotira

nuri” kompozitsiyasining ma’naviy ahamiyatini ochib berishga alohida e’tibor qaratilgani dasturning ta’sirchanligini yanada oshirgan.

Dastur chog‘ida tashkil etilgan ko‘rgazmada harbiy qurol-yarog‘ maketlari, tarixiy shaxslar portretlari, vatanparvarlik mavzusidagi badiiy asarlar va kitoblar namoyish etildi. “Turkiston” saroyi foyesida tashkil etilgan ekspozitsiyalar tadbirga o‘zgacha ruh bag‘ishladi.

Shu bilan birga, tegishli vazirlik va idoralar hamda Yozuvchilar uyushmasi tomonidan “Mard askarga sovg‘a” turkumida nashr etilgan yangi kitoblar taqdimoti ham o‘tkazildi.

E’tiborli jihati shundaki, “Vatan manzumasi” tadbirlarini yaqin kunlarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, barcha viloyat, shahar hamda qishloqlarda, ta’lim muassasalari va mahallalarda ham namoyish etish rejalashtirilgan. Bu orqali mamlakat bo‘ylab yoshlarning vatanga muhabbati va sadoqatini yanada mustahkamlash maqsad qilingan.

Vasila HABIBULLAYEVA

“QOYILMISAN INSONGA, ZAMIN?!”

Boshlanishi 1-sahifada.

Chalg‘imayman, pichirlayman:

*“Boqib men samolyot darichasidan,
ko‘raman, azaldan tanishdir ular...”*

Ha, avvaldan tanish. Masalan, anavi tog‘lar haqida ming marta o‘qiganman. Pastdagi esa *“yilqisi bilan mashhur, qadim qipchoq yeri”*. Undagi mo‘jaz shaharda bir paytlar Bella ismli qizcha yashagan. Aynan shu yerda Nazar bovaning bolasi derazaga tosh otib, yig‘lagan. Mambet botir esa zindon darichasidan mana shu burgutsevar osmonga alam bilan tikilgan. Darvoqe, 1961-yilning 12-aprelida Boyqo‘ng‘irdan uchayotgan havo kemasini minglab ko‘zlar shu osmon ostidan fazoga kuzatgan. Undan bir kun avval ushbu olamshumul yangilikni eshitgan “Kazaxstanskaya pravda” ro‘znomasining qiyiq ko‘zli, chapani, shoirtabiat xodimi hayajondan qichqirib yuborgandi: *“Qoyilmisan insonga, zamin?!”* Va u tuni bilan she‘r yozib chiqqandi. Natijada...

Ertasi kuni osmondan she‘r yog‘di! Tushun-yapsizmi, yuz ming nusxadagi birgina she‘r! Ular birin-ketin Olmaotadagi uylar tomiga, ko‘chalariga, Yettisuv dashtining yovvoyi otlarini sug‘oradigan Tentaksoyga, quduqkov Kazbekning sut vishillab toshayotgan qozoniga, Qorabotir va O‘roqbotir aytishuv qilib turgan davraga, xullas, hamma yerga ohista-ohista qo‘ndi. Bir hafta o‘tar-o‘tmas kichik she‘r o‘sib-o‘sib, katta doston bo‘ldi. May oyida hayratga to‘la ushbu poemani “oltmishinchi yillar shoiri” Amerikaning Kolumbiya universitetida, iyul oyida Parijda, Sorbonna zalida, keyin dunyoning boshqa yuksak minbarlarida hayqirib o‘qidi. O‘sha kezlarda yosh shoir dengiz bo‘ylaridagi shaharlarning yal-yal yonayotgan chiroqlariga qarab hozirgidek pichirlagani aniq:

*“Nyu-Yorkda dostonlar o‘qiyman jo‘shib,
Misrda she‘r bitgum anduhim qo‘shib”.*

Shu xayolli bilan qanday qo‘nib, qanday joylashib, qanday uxlaganimni bilmay qoldim.

Tong otdi. Pardalarni ochdim. Va...

“...Albatta, men o‘zimni Olmaotada juda qulay his qilaman. Chunki bu tog‘larga muhtojman, intiqman, zorman. Bolaligimdan ertalab turib, derazadan pushti-oq cho‘qqilari bo‘lgan qorli tog‘larni ko‘rishga odatlanganman. Bu yer menga Parij, Moskva yoki Rimdan ko‘ra ming chandon azizroq!”

Shosha-pisha Narxoz universitetining majlislar zaliga yetib oldim. Tumonat odam. Tadbirni Qozog‘iston Respublikasi Madaniyat va axborot vaziri Aida Balayeva tabrik so‘zi bilan ochib berdi.

Ko‘zlarim sahnada qatorlashib turgan fozil odamlar ichidan tanish chehrani izlaydi. Mana u, turkiy xalqlarning sevimli shoiri, qalbi va tafakkuri



qozoq dashtlariday keng olim, o‘z vaqtida yirik tadqiqotlar bilan dunyoni hayratga solgan, mustabid tuzum malaylarini yaxshigina talvasaga solgan va shuning ortidan ko‘pgina tazyiqlarga uchragan jasoratli arbob – O‘ljas Sulaymon!

Bu yoqda “Az i Ya” kitobining ellik yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya boshlandi. Mavzu: “Turkoslavistikaning tug‘ilishi”. Dehqoncha tushuntirganda “Turkiy va slavyan xalqlarining tili, madaniyati tutashgan nuqtalarni o‘rganuvchi fanning dunyoga kelishi”.

Keyin so‘z YUNESKO homiyligidagi Madaniyatlarni yaqinlashtirish xalqaro markazi direktori O‘ljas Sulaymonovga berildi. Sezib turganingizdek, u barchaga minnatdorlik bildirdi va ilmiy jamoatchilikni hayratga soluvchi yangilikni – qozoq tilini qadimgi Misr sivilizatsiyasi bilan bog‘lovchi lingvistik gipoteziyani ilgari surdi. Unga ko‘ra, “qozoq tilida so‘zlashuvchilar “Osiris qonuni”ning merosxo‘rlaridir”. Muallif “Osiris” so‘zidagi “os”ni turkiy tillarda mavjud bo‘lgan “os” (o‘smoq) so‘ziga aloqasi bor degan farazga tayanmoqda. Buning qanchalik haqiqatga yaqinligini vaqt va ilmiy izlanishlar ko‘rsatadi.

Shuningdek, anjumanda TURKSOY Bosh kotibi Sulton Rayev, tojikistonlik taniqli shoir Timur Zulfikarov, fransiyalik filolog va tadqiqotchi Ketrin Pujol, “Az i Ya” simfonik-konserti muallifi, kompozitor Igor Matsiyevskiy, Rossiya ta’lim akademiyasi a’zosi Vladimir Filippov, Ozarbayjondagi Otaturk markazi direktori, akademik Nizomiy Jafarov va boshqalar “Az i Ya” haqidagi ma’ruzalari bilan ishtirok etdi. Chiqishlarda 1975-yilda nashr etilgan “Az i Ya” kitobi XX asrning dadil ilmiy-poetik eksperimentiga aylangani qayta-qayta ta’kidlandi.

Qizig‘i, shu kungacha dunyoning ko‘plab tillarga tarjima qilingan asarning qozoqchadagi yangi nashriga Qozog‘iston tennis federatsiyasi prezidenti, taniqli tadbirkor va xayriyachi Bulat O‘temuratov homiylik qilgan. Ushbu yangi nashr va 1970-80-yillarga oid arxiv to‘plami va “Prostor” jurnalining mazkur asarga bag‘ishlangan yubiley

sonining taqdimoti anjumanning kulminatsion nuqtasi bo‘ldi, deyish mumkin.

Tadbir doirasida insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surgan va madaniyatlaro muloqotni rivojlantirishga munosib hissa qo‘shib kelayotgan soha mutaxassislariga jurnalistika bo‘yicha O‘ljas Sulaymonov nomidagi xalqaro mukofot topshirildi. O‘ljas og‘aga esa Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi tomonidan Muhammad Fuzuliy medali taqdim etildi. U faqat xorijiy shoirlarga yuksak adabiy yutuqlar uchun beriladi. Bundan tashqari, qozoq yozuvchisi jahon adabiyoti rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun Jahon yozuvchilar tashkilotining Oltin medaliga sazovor bo‘ldi.

Anjumanning keyingi qismida tarix fanlari doktori, professor Ketrin Pujol quyidagi fikrlarni aytib o‘tdi: *“O‘ljas Sulaymonov sun‘iy intellektidan tez fikrlaydi. Chunki u haqiqiy inson qalbi va tafakkuriga ega yirik shaxs. Masalan, u o‘zining mashhur “Qoyilmisan insonga, zamin?!” dostonida shunday degan: “Sharq yo‘q, G‘arb yo‘q. Ona zamin degan buyuk so‘z bor!” Turli qutblarga bo‘linib ketayotgan bugungi dunyo uchun juda zarur bo‘lgan fikr bu!”*

Tadbir o‘tkazilgan zalga kiraverishda O‘ljas og‘aning hayoti, ijodi va faoliyatidan so‘zlovchi ko‘rgazma ham tashkil qilingan. Konferensiya yakunida turkiy slavyanshunoslikni rivojlantirishga oid maxsus bitimlar imzolandi. Yig‘ilish qatnashchilari va xorijdan kelgan olimlarga “Jadid” gazetasining yangi sonlari taqdim etildi.

Men YUNESKOning Olmaotada joylashgan Madaniyatlarni yaqinlashtirish markaziga borib, “Jadid” gazetasida e’lon ilingan sara maqolalar asosida chop etilgan “Tilda, fikrda, ishda birlik” kitobi va haftalikning bir necha sonlarini O‘ljas Sulaymonovga taqdim etdim. Og‘a ko‘p xursand bo‘ldi va o‘zbekistonlik bovrulariga qardoshlik salomi yo‘lladi.

Shahriyor SHAVKAT

Toshkent – Olmaota – Toshkent

ISLOHOT

Innovatsion loyihalar har qanday sohaning taraqqiyoti va barqaror rivojlanishida muhim kalit vazifasini o‘taydi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda mudofaa sohasini isloh qilish, milliy armiyamizning jamoaviy salohiyatini mustahkamlash, uni zamonaviy texnologiyalar asosida qayta shakllantirish bo‘yicha ulkan loyihalar amalga oshirilmoqda.



MUDOFAA SANOATIDA INNOVATSIYA

Natijada qo‘shinlarimiz zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan butlanib, Yangi O‘zbekistonning mustaqilligi va suvereniteti, xalqimiz xavfsizligi va farovonligini ta’minlashga qodir bo‘lgan professional armiya yaratildi. Qurolli Kuchlar tarkibidagi harbiy qism va muassasalarda zamonaviy qurol-yarog‘, maxsus texnika va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlash ishlari tizimli va muntazam amalga oshirilmoqda. Shuningdek, harbiy kadrlar tayyorlash tizimida ilmiy va amaliy yondashuvlarga alohida e’tibor berilayotir.

Harbiy-texnik sohada 50 ga yaqin davlatlar bilan hamkorlik o‘rnatilib, 30 dan ortiq ilg‘or xorijiy kompaniyalar bilan shartnomalar imzolandi. 40 ta mahalliy korxona bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlari 155 taga yetkazilib, xizmat ko‘rsatish 2,5 barobarga oshirildi.

Dunyodagi eng so‘nggi va zamonaviy texnologiyalar, avvalo, harbiy sohadagi izlanish va tadqiqotlar natijasida yaratilgan. Shu bois, innovatsion g‘oyalarni sinash, yoshlar o‘rtasida texnologiyalarga qiziqishni oshirish va muhandislik sohasiga yo‘naltirish hamda mahalliy korxonalarni mudofaa sanoatiga jalb qilish maqsadida “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasida mudofaa sohasida innovatsion texnologiyalar festivali o‘z faoliyatini boshladi.

Pavilonida tashkil etilgan ko‘rgazmada davlat va xususiy sektor vakillari, mudofaa sanoati korxonalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va muhandislik markazlari tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion loyihalar,

yangi modeldagi harbiy texnikalar, qurol-yarog‘ tizimlari, intellektual boshqaruv mexanizmlari va yuqori aniqlikdagi qurollar namoyish etiladi. Shuningdek, milliy mudofaa salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etayotgan mahalliyashtirilgan ishlab chiqarish texnologiyalari, eksportbop mahsulotlar ham alohida diqqat markazida bo‘ladi.

Shuningdek, ko‘rgazma doirasida ishtirokchi kompaniyalar o‘rtasida “B2B” formatidagi biznes uchrashuv va muzokaralar o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Bu tadbirlar yangi loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Festival doirasida yoshlar o‘rtasida “Kibersport”, “Xakerlik ustasi”, “Dasturlash”, “3D modellash tirish texnologiyalari”, “Robotlar jangi”, uchuvchisiz uchish apparatlarini loyihalashtirish, “Raketamodel”, “Dron reysing” hamda “Kelajak transport texnologiyalari va robototexnikasi” kabi yo‘nalishlarda musobaqalar ham qizg‘in ruhda kechishi kutilmoqda.

1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan mazkur hududda bolalar uchun ko‘rgazmali namoyishlar, amaliy mashg‘ulotlar, ko‘ngilochar dasturlar hamda turli sport musobaqalari bo‘lib o‘tadi.

Festival yosh avlodni ilmiy-texnik ijodkorlikka keng jalb etish, ularning salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va kelajak mutaxassislarini tarbiyalashda muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Bobur ELMURODOV,
kapitan

IBRAT

Kitobsevar tadbirkor

Yodimda, yulg‘unzorda mol, qo‘y boqib yurardim. Qo‘lmda kitob. Fikr-u xayolim asar qahramonlarida. Bir-zan kitobga asir bo‘lib, mol yo qo‘y qayoqqa ketganini bilmay qolardim. Keyin... zir yugurib qidirardim. Shu alfozda yuzlab kitob o‘qidim.

Bu o‘quvchilik paytimdagi gaplar. U vaqtlar kitob ko‘p bo‘lganmi yo hamma kitob o‘qirmidi, bilmadim. Bitta rayonda o‘rta hisobda 20 ta kolxoz, 80 ta maktab bo‘lsa, jami 100 ta kutubxona bo‘lgan. Keyinchalik kolxozlarga qo‘shilib, ularning boy kutubxonalari ham yo‘q bo‘lib ketdi. To‘g‘ri, maktab kutubxonalari saqlab qolindi. Aniqlirog‘i, ularning bari qayta tashkil etilgani bois kitob fondlari ham ancha g‘ariblashdi.

Bu orada tumanga o‘nlab hokim, prokuror kelib ketdi. Ne bir amaldorlar almashmadi. O‘zini ma’naviyat sohasining piri deb e’lon qilganlar bo‘ldi. Hatto kutubxona uchun hokimiyatdan joy so‘rab, ajratilgan yer maydonlaridan boshqa maqsadlarda foydalaniganlar ham uchradi. Ammo

hech kim kitob haqida, hududdagi zamonaviy kutubxonalar-u kutubxonlikning bugungi ahvoli haqida deyarli o‘ylab ko‘rmadi. Aholi u yoqda tursin, o‘z bolasiga kitob sotib oladiganlar kamyon bo‘lib qoldi.

Bu holat xalq deputatlari Denov tuman kengashi deputati, tadbirkor Islom Xudoyberdiyevning diqqatini tortdi. Tadbirkor dastlab 18 ming kitob fondiga ega “Chag‘oniyon” kutubxona markazini bunyod etdi. So‘ng tuman-dagi 10-ixtisoslashtirilgan maktab internati hamda 69-, 90-maktablarning kitob fondini boyitdi. Hududdagi 82-maktabda “Usmon Azim” kutubxonasini ochildi. Bundan tashqari, u taqdir taqozosi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qo‘ng‘iroq tumaniga borib qoldi va u yerda ham “Termiziylar kutubxonasi”ni tashkil etdi. Kuni kecha esa u o‘zi o‘qigan 17-maktabda yana bir kutubxonani foydalanuvchilar ixtiyoriga topshirdi.

– Bu tadbirkor tomonidan aholiga tuhfa qilinayotgan to‘rtinchi kutubxona, – deydi falsafa fanlari doktori Ra’no Salomova. – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti kutubxonasini



shakllantirishda ham u kishining hisssasi katta. Minglab kitoblarni o‘z hisobidan xarid qilib, kutubxonalar ochgan odamda yuksak saxovat, jadid bobolarga maslakdoshlik hissi bo‘lishi kerak.

Aytgancha, bu yil 17-maktabning tashkil topganiga yuz yil to‘ldi. Shu munosabat bilan Denov tuman hokimi Ilhom Abrorov ta’lim dargohida bo‘lib, o‘quvchi-yoshlar bilan uchrashdi. Yangi kutubxonani ko‘zdan kechirdi. Tadbirda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Surxondaryo viloyat bo‘limi vakillari, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti professor-o‘qituvchilari, maktab jamoasi va ot-onalar ishtirok etdi. So‘zga chiqqanlar ma’rifatparvar tadbirkor Islom Xudoyberdiyevga xayrli tashabbusi va himmati uchun minnatdorlik bildirishdi.

Shuhrat AZIZOV



Jahon ravshan ziyoyi ilmdandur,
Ko‘ngil sofi safoyi ilmdandur.

Anbar Otin



Boshlanishi 1-sahifada.

– Bolaligimni eslatdingiz... Xayolim o'sha Kattaqo'rg'on teatrining poydevori qurilayotgan paytlarga ketdi. Qumdan kichik imoratlar, uychalar, har xil shaklda bir nimalar yasab o'tirgan bolakayni esimga tushirdingiz. Rassomligim ham, rejissyorligim ham xayolimdan ko'tarildi shu da'fada... Vaqt yugurik, ortga qarasang uning bir zumda o'tib ketganini ko'rasan. O'tgan umringni xayolot dunyosida uzog'i bilan besh daqiqada yashab o'ta olasan. Shu juda qisqa vaqt oralig'ida xayolingdan kechgan manzara butun boshli hayoting manzarasini chizadi...

Savolingizga kelsak, albatta, sahna rassomi ishlagan asari, chizgan surati, yaratgan sahna bezaklarining ichida o'zi ham yashaydi. Dedal o'sha qanotning qanday uchishi, qayergacha borishi, qaysi cho'qqigacha chiqishi mumkinligiga javob topganidan keyin uni chizishga jazm qilganiga ishonchim komil. Shu ma'noda, rassomning har bir chizgan suratini sahnalashtirilgan asarga qiyoslash mumkin. Mening rejissuramning mohiyati ham aslida rassomligimga borib taqaladi.

– Sizni dastlab rassom sifatida taniganmiz. Yodimda bor, 1997-yilda ilk albomingizni chop ettirgandingiz. Undagi suratlarining nomlanishi meni hayratga solgan. Oddiygina guldonga solingan bahor gullarining “Gullayotgan suv” yoki oqqushning yerga inayotgan tasviri “Eriyotgan tong”, tanbur chertayotgan ayol suratining “Sir sozandasi” deb nomlanishi asarni butunlay jonlantirib yuborgan edi. Kartinalaringizga taniqli shoir, do'stingiz Aziz Said nom berganini aytgan edingiz. Aytting-chi, rassomning shoir va yozuvchilar bilan ijodiy hamkorligi qay darajada muhim?

– Rassom badiiy asar o'qimasa, keng fikrlaydigan ijodkor bo'lishi qiyin. Shoirlar ham tasviriy san'at asarlarini “o'qiy olsalar” nodir fikrlay oluvchi so'z sohibi bo'la oladi. Shu bois, o'ylaymanki, ular bir-birlari bilan chambarchas bog'liq.

Chindan ham, o'sha suratlarimga qadrdon akamiz, iste'dodli shoir Aziz Said nom bergan. O'zim ham Aziz Said va rahmatli Abduvali Qutbiddin she'rlarini yaxshi ko'radim. Chizgan suratlarimga Aziz aka nom berar, men u kishi shuni xohlayaptimi, demak, asarimda nimanidir ko'r'di, deb quvonardim. Suratlarimni “o'qiy olgan” uning yutug'i, u kishining diqqatini jalb qila olganim esa mening muvaffaqiyatim edi. Birgalikda ko'rgazmalarga qatnardik. Hozir rassomlarning ko'rgazmalariga shoir va yozuvchilar kelib turishibdi deyshsa, ko'pam ishonolmayman. Lekin adabiyotga, she'riyatga qiziqadigan rassomlarimiz ko'p. Shoir va yozuvchilar – so'z rassomlari, biz esa – shakl va holatlar shoirimiz. Ular bilan dunyoqarashlarimiz uyg'un. Rassom uchun badiiy ijod namoyandalari bilan hamkorlik judayam muhim. U she'r o'qimay barkamol asar yaratishi qiyin.

O'zi umuman turli soha ijodkorlari o'zaro hamsuhbat bo'lib turishi kerak. Ijod ahli ko'zga ko'rinmaydigan tuyg'ular olami orqali bir-biriga bog'liq bo'ladi.

– Ijodkorini adabiyot shakllantiradi. Siz biror asardan ta'sirlanib sahna tasvirini yaratasisizmi yoki teatrdagi qo'yilishi kerak bo'lgan asarni zarurat yuzasidan o'qib chiqib, keyin chizasisizmi?

– Menimcha, yangi asar yaratishga zarurat ijodkorning botinida tug'iladi. Odam o'zini majburlab yaxshi asar yaratolmaydi. Lekin

“RASSOM – SHAKL VA HOLAT SHOIRIDIR”



iste'dod baribir iste'dod! Ba'zilar, buyurtma bo'yicha qilingan ijod ijod emas, deyishadi. Men bu fikrga unchalik qo'shilmayman. Haqiqiy ijodkor mana shunday holatlarda ham o'z iqtidorini yuzaga chiqara oladi, chunki u hech qachon o'z vazifasini qo'l uchida, o'rtacha saviyada bajarolmaydi.

Sahna rassomi sifatida asarni o'qiyisiz, ma'qul kelsagina uning ustida ishlaysiz. Rassom va rejissyor undan chiqib ketmagan holda o'z eskizi va ssenariysini yaratadi. Bu, albatta, boshqacha shakl – alohida ssenariy bo'ladi. Bizning tilda bu rejissyor pozitsiyasi deyiladi. Dramaturg aytmoqchi bo'lgan fikr, g'oya orasidan o'ziga ma'qul bo'lgan ma'noni bo'rttirib, sahnada shuning ifodasini shakllantiradi. Bu shakllantirishning ham o'ziga xos talablari bor. Ustozlarimizdan biri dramaturgning yozgan asarini asl holida sahnaga olib chiqqan rejissyor shunchaki sahnalashtiruvchi bo'ladi, deb o'rgatgan. Rejissyor, albatta, yangilik qilishi shart.

– Sizni elga mashhur qilgan ikki san'at turi bor. Biri katta konsertlar uchun sahna dekoratsiyasini yaratish bo'lsa, ikkinchisi qumda surat chizish...

– Avvalambor, o'zimni mashhurman deb hisoblamayman. Men oddiy rassomman, kartinalar chizaman, asarlar yarataman. Qumda ijod qilish esa – sevimli mashg'ulotim.

– Jadid bobolarimiz siymosini qumda chizganingizda ham ramziy ma'no bordek?

– Men jadid ma'rifatparvarlarini ichimdan yaxshi ko'raman. Ular nafaqat o'z davrining, balki barcha zamonlarning ilg'or odamlari bo'lgan. Millat baxt-saodati yo'lida jonini qurbon qilgan insonlar edi ular. Jadidlar orzu qilgan zamonlarda, mana, biz yashayapmiz. Bizga esa ular yetishmayapti. Bu ulug' insonlarning siymosini chizayotganimda shuni his etdim. Bir urinishda yetti jadid ma'rifatparvarlarining qiyofasini hech qanday montajsiz, yarim soatga qolmay chizishga muvaffaq bo'ldim. Birinchi urinishdayoq tasvirga olindi. Taniqli adabiyot va san'at namoyandalari bu asarlar haqida iliq fikrlar bildirishdi. Bundan boshim ko'kka yetdi.

– Sizning Milliy teatrdagi ustaxonangizda xonaningizni ijod qilishingizdan xabardormiz. Hatto dam olishga ham vaqtimni qizg'anaman, deganingizni eshitganman. Agar musavvir faqat ijod bilan andamon bo'lib, atrof-olamdan uzilib qolsa, u ilhomni, hayratni qayerdan oladi?

– Dam olishga vaqtimni qizg'anaman, deganda nimani nazarda tutganman? Avvalo, bu – men mutlaqo dam olmayman, degani emas. Masalaga qaysi tomondan qarashga, inson o'ziga nimani birlamchi qilib olishiga bog'liq bu. Chet davlatlarga sayohatga, tog'li maskanlarga borish... Kim uchundir shular dam olish. Men esa o'z ustaxonamda yangi asar yaratayotganimda dam olaman. Menimcha, ijodkor qancha ko'p yolg'iz qolsa, jamiyatning ichiga shuncha chuqurroq kiradi. U ko'pchilikning orasida o'zidan uzoqlashadi. Ijodkorga sukunat kerak. Yolg'iz qolish – jamiyatdan uzoqlashish degani emas. Ijodkor o'zi bilan o'zi xoli qolsagina, ko'proq yangilik yaratishi mumkin, men hayratni tabiatdan va tasavvurlarimdan olaman.

– Baxtiyor aka, siz ko'p qirrali ijodkorsiz. Teatrdagi bir qancha asarlarni sahnalashtirdingiz. Odamlarda saviya har xil, kayfiyat ham ko'p narsani belgilaydi. Rejissyor ham doimo olqish eshitmaymaydi. Sizning rejissyorlik ishlaringizga san'atshunoslar tomonidan tanqidiy fikrlar bildirilganmi? Nima deb o'ylaysiz, tanqid ijodkorini tarbiyalaydimi yoki sindiradimi?

– O'ylab ko'rsam, ushbu teatrdagi rassom bo'lib ishlayotganimga o'ttiz besh yil to'lgan bo'lsa, shu vaqt ichida ijodiy ishlarim haqida jiddiyroq e'tirozlarga duch kelmagan ekanman. Bir gal rahmatli ustozimiz Nabi Rahimov “Fig'on” spektakliga ishlangan dekoratsiya haqida o'z fikrini bildirgan. “Eskizlaring juda yaxshi, faqat shu sahna bezagida bittagina chiziqli yetishmayotganga o'xshaydi”, dedi u kishi. Bu spektakl Nodirabegim haqida edi. Shu bois men dekoratsiyada poeziyaning jozibasini ifoda etishga harakat qilganman. O'zim ham sahnada nimadir yetishmayotganini ichimdan his etsam-da, lekin aynan nima yetishmayotganini anglolmay turgan edim. Nabi akaning tavsiyasi bilan sahnadagi vertikal chiziqlarga birgina gorizontal chiziqli qo'shish orqali dekoratsiyaning mazmuni chuqurlashib, g'oyasi aniq-tiniq namoyon bo'ladi. Nabi Rahimov men qidirayotgan kalitni topib bergan edi o'shanda. San'atshunoslar doimo spektakllarga ishlagan

dekoratsiyalarimni ijobiy baholashgan. Rejissyorlik ishlarimda ham shunday, o'n oltita spektakl sahnalashtirgan bo'lsam, hali birotayam jiddiy e'tirozga duch kelmaganman.

Tanqid o'zi nima? U yomonlash degani emas. Tanqid bu – tahlil. Mustahkam pozitsiya bilan ishlagan ijodkor o'ziga ishonadi. Tanqidni to'g'ri qabul qiladi, sinmaydi. Menimcha, uni qanday qabul qilish, avvalo, ijodkorning ruhiyati bilan bog'liq.

– “Qumda sevgi jilolari” deb nomlangan asaringiz o'zbek teatrida yangilik bo'ldi, deyishadi...

– Taniqli kompozitor Sultonali Rahmatov musiqasi ostida qumda spektakl namoyish etganmiz. Liberetto muallifi Laziz Rahmatov bilan birgalikda butun suyuqni musiqa, aktyorlar va qumdagil voqealar tasviriga singdirdik. Asar Milliy teatrimiz sahnasida yurtimizga kelgan xorijiy mehmonlarga namoyish etildi. Bundan tashqari, ushbu teatrdagi ilk bor absurd janrida ham polyak dramaturgi Slovomir Mrojak qalamiga mansub “Chegara ustidagi uy” asari asosida shu nomda spektakl sahnalashtirdim. U ham yaxshi baholandi. Taniqli kinorejissyor Shuhrat Abbosov ham bu asar haqida juda iliq fikrlar bildirgan edi.

Men boshqa rejissyorlar bilan ham hamkorlikda ishlashni yaxshi ko'raman. Ayni vaqtda Jizzax viloyati teatrida iqtidorli yosh rejissyor Shohrux Yo'ldoshev bilan ijodiy hamkorlikda ishlayapmiz. Ochig'i, Shohrux bilan ijodiy tandemimiz menga zavq beryapti. Uning erkin va o'ziga xos fikrlashi menga juda yoqadi.

Ta'bir joiz bo'lsa, sahna rassomi rejissyorni “yondira olishi” kerak. Ustozlarimiz bizga shunday o'git berishgan. Rejissyor aktyor uchun sahnadan pozitsiya izlaydi, rassom esa shakl axtaradi. Stsenografiya, ya'ni sahna dekoratsiyasi san'atining ham bir qancha janrlari bor. Qachonki rassom asar va janrni uyg'unlashtirishga muvaffaq bo'lib, shu orqali rejissyorning ko'ngliga cho'g' tashlasagina yaxshi spektakl yuzaga keladi.

– Milliy teatrdagi 1991-yildan buyon bosh rassom sifatida faoliyat ko'rsatyapsiz. Shu yillar ichida san'at bilan bog'liq siz anglagan haqiqat nima? Barcha sohalarga zamonaviy texnologiyalar shitob bilan kirib borayotgan bir paytda san'atning yashab qolishiga ishonasizmi?

– Bu juda dolzarb mavzu. Hayotimiz butkul texnikalashib, kompyuterlashib ketayotgan hozirgi zamonda robot-odamlar ham jamiyatga kirib keldi. Dunyo o'zgarib borayotganini ko'rib turibmiz. Lekin bir narsani unutmaslik kerak, har qanday “aqlli” texnika, sun'iy intellekt va “qudratli” robotlar ham insonning o'zligini belgilaydigan kechinma va tuyg'ularga ega bo'lolmaydi. Shu ma'noda, haqiqiy san'atning o'rnini hech narsa bosolmaydi. Chunki his-tuyg'ular – ilohiy ne'mat. Robot va texnikalarni esa odam yaratyapti. Shuning o'zi ham ko'p narsani anglatadi, nazarimda.

Mana, muayyan bir manzara tasvirini rassom uzoq vaqt va kuch sarflab matoga chizadi. Fotosuratchi o'sha manzarani bir lahzada “chiq” etkizib rasmga tushiradi-qo'yadi. Lekin e'tibor bergan bo'lsangiz, fotoapparatda tushirilgan surat harakatsiz, qotib turadi. Musavvir chizgan suratdan esa

hayot nafasini gurkirab turadi, u sizga ming xil ma'nolarni “so'zlaydi”. “Mona Liza” kartinasi aynan shuning uchun ham necha asrlardan buyon o'z qadri va ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

– Baxtiyor aka, siz kutgan savolni berolmagan bo'lishim mumkin. Anglashimcha, yana aytadigan gaplaringiz borday...

– Odatda, o'zgalarning savol berishini kutib o'tirmasdan o'zinga o'zim savol beraman. Bu savollarga chizgan kartinalarim, spektakllarga ishlagan dekoratsiyalarim orqali javob berishga intilaman...

Chindan ham, sizga beradigan savolim bor: nega aksariyat yozuvchi va shoirilar madaniyat, san'at sohasidagi muammolar haqida bong urishadi-yu, o'zlari teatrga kelishmaydi? Biz ular yozgan asarlarni o'qiyamiz, xo'sh, nega ular bizning asarlarimizni ko'rmaydilar? Masalan, men Alisher Navoiy hazratlarining “Hayrat ul-abror” asarini sahnalashtirdim. Teatrimiz tarixida bu asarga ikki marta qo'l urilgan. Keyin negadir qo'yilmay qolib ketgan. Xullas, “Xamsa”dagi eng katta doston yana sahna yuzini ko'r'di, lekin men kutgan adiblar, olimlar yana o'zini aziz qildi. Holbuki men ularning asar haqidagi qimmatli fikrlari, jo'yali tanqid va takliflaridan umidvor edim. O'z davrida jadid bobolarimiz ham avvalo, teatr san'atini rivojlantirishga harakat qilganini bilasiz. Ijodkorlarimiz ma'naviyat o'chog'i bo'lgan teatrlarni unutib qo'yishmayaptimi?

Nazarimda, teatrga qiziqishning pasayib ketishida hurmatli ziyolilarimizning ham ma'lum darajada aybi bor. Dramaturg asar yozgani, rejissyor uni sahnalashtirgani bilan teatr san'ati rivojlanib qolmaydi. Ziyolilar sahna asarlarini sinchkovlik bilan tomosha qilib, ularning yutuq va kamchiliklari haqida fikr bildirishsa, ushbu san'atning daraja va saviyasini ko'tarish uchun astoydil jon kuydirishsa, ayni muddao bo'lardi.

Mayli, siz mening savollarimga javob berishga urinmang. Undan ko'ra, teatrga keling. Sahnalashtirilayotgan spektakllarni ko'ring, ularning yutuq va kamchiliklari haqida mushohada yuriting. Nuqsonlari haqida matbuotda, internetda o'z fikringizni baralla aytishdan tortinmang. Tomoshabinlar orasida ziyoli qatlami qancha ko'paysa, rejissyorda ham mas'uliyat hissi ortadi, spektakllarni ularning darajasida sahnalashtirishga harakat qiladi. Ana shunda bachkana, oldi-qochdi “sahna tomoshalari”dan xalos bo'lamiz. Ma'naviy yuksak spektakllar ko'payadi.

– Siz nafaqat san'atda, balki hayotda ham baxtiyor va ko'pchilikka o'rnak bo'la oladigan insonsiz. Suhbatimiz nihoyasida oilangiz va shogirdlaringiz haqida ikki og'iz to'xtalib o'tsangiz.


– Shogirdlarim bisyor. Ularning ko'pchiligi allaqachon ustoz maqomiga yetgan. Yosh shogirdlarim ham bor. Hammasi o'z farzandimday bo'lib qolgan. O'ylaymanki, ularga faqat chizishda emas, fikrlashdayam ustozlik qildim.

Bilasizmi, ustoz shogirdiga aql o'rgatishi shart emas. Shunchaki uning ko'z o'ngida o'z ijodini davom ettirishi lozim. Shogird ana shu jarayonda ko'p narsalarni o'rganadi. Ustoz-shogirdlik tushunchasining mohiyati ham shu aslida. Shogird ustozining saboqlarini so'zsiz, vositasiz olish uquviga ega bo'lishi kerak.

Oilamga kelsak, bir qizim va ikki o'g'lim bor. Uchalasi ham san'at yo'nalishida faoliyat olib boradi. Ikkala o'g'lim ham rassom, o'zim bilan birga ishlaydi. Qizim Turkiyada musiqa yo'nalishi bo'yicha magistratura bosqichini tugatdi. Turmush o'rtog'im filolog. Juda kitobxon. Onam adabiyot o'qituvchisi bo'lib ishlagan, hozir to'qson yoshda bo'lsa-da, haligacha adabiyotga xilosi baland.

Bir so'z bilan aytganda, baxtli oilamiz. Aslida bu dunyoda hamma odamlar baxtli. Menimcha, baxtni boricha tushunish, berganicha qabul qilish kerak.

Muhayyo RUSTAM qizi suhbatlashdi.



“Zukko kishi oddiy narsalar haqida murakkab ohangda, rassom esa murakkab narsalar haqida oddiy ohangda so'zlaydi.

Charlz BUKOVSKI

PREMYERA

Taniqli fransuz dramaturgi Pyer Bomarshe tomonidan yozilgan “Sevilyalik sartaosh” komediyasi qahramoni Figaro ilk bor 1775-yili sahnada paydo bo'lgandi. Shundan buyon mazkur komediya jahonning turli teatrlari talqinida dunyoning yetakchi sahnalarida namoyish etib kelinmoqda. Joakkino Rossinining betakror musiqasi asosida yaratilgan ushbu durdona opera bosh qahramoni Figaro ariyasida yangraydigan “Figaro shu yerda, Figaro u yerda” degan qanotli ibora hamon tildan tilga ko'chib yuribdi.



FIGARONING QAYTISHI

Kuni kecha O'zbekiston davlat musiqali (operetta) teatrida “Sevilyalik sartaosh” musiqali spektaklining namoyishi bo'lib o'tdi. Ikki ko'rinishdan iborat mazkur spektakl iste'dodli yosh rejissyor Ruslan Sherezdanov tomonidan mahorat bilan sahnalashtirilgan. Parda ochilib, aktyorlar ijrosi boshlanishi bilan tomoshabin beixtiyor asarda yuz berayotgan voqelik ichiga kirib ketadi. Bunda asar yaratilgan davr ruhini yaqqol namoyon qiluvchi, voqealar kechadigan joyga munosib sahna bezagining hissasi katta. Shu o'rinda postanovkachi

rassom Natalya Glubokinaning xizmatini alohida ta'kidlash joiz. Asarni sahnalashtirishga katta hissa qo'shgan diiriyor Bobomurod Xudoyqulov, baletmeyster Feruza Isayeva, xormeyster Yana Karabonova, liboslar ustasi Zahro Qosimovanning xizmatlari ham e'tirofga loyiq.

Rejissyor har bir rolga munosib aktyor tanlashga muvaffaq bo'lganini alohida qayd etish joiz. Har bir aktyor o'z obraziga jiddiy yondashgani tufayli tomoshabin sahnada o'sha davr hayoti va odamlarini ko'rgandek bo'ladi. J.Rizayev (Figaro), R.Yoqub-

jonova (Rozina), I.Alijonov (graf Almaviva), S.Normatov (doktor Bartolo), J.Hotamov (don Bazilio), O.Zvereva (Berta), M.Valanskiy (Fiorello), F.Safarov (Ofitser), A.Nurmanov (Ambrodio) kabi teatring iste'dodli aktyorlari o'zlariga topshirilgan rolni maromiga yetkazib ijro etishgan.

Sirasini aytganda, asrlar davomida qalblarni asir qilib kelayotgan bu o'lmas sahna asari operetta teatrimizda qayta ohorlangani nozik-ta'b o'zbek tomoshabinlariga munosib tuhfa bo'ldi.

Gulchehra UMAROVA



30-MAY – MIRTEMIR TAVALLUD TOPGAN KUN



Mening armonlarimdan biri Mirtemir kabi ulug' shoirni ko'rolmay qolganimda. Domlanning vafotidan bir yil keyin, 1979-yilda Toshkentga o'qishga kelganman. Doimo ich-ichimda Mirtemir sog'inchi bor. Shoirning yuragi chaqnab ko'rinib turgan she'rlarini o'z-o'zimga shivirlab takrorlaganimda bu sog'inchni yanada teranroq his etaman. Men keyinroq ustozlarning uzoq gurunglarini eshitib, o'zbek shoiri qanday bo'lishi kerak deyilganda, Mitemirday bo'lishi kerak degan xulosaga keldim. Nega? Chunki Mirtemir har qanday vaziyatda xalqidan ayro tushmagan. Ba'zi kazo-kazo sovet mafkurasining sovrindorlari baland shohsupalarga kekirib o'tirgan paytda u jabr-u sitamni ham, azob-u g'ussani ham xalqi bilan birga tortdi. Shu bois 1910-yildan 1978-yilgacha O'zbekistonda kechgan alg'ov-dalg'ov tarix qaysidir ma'noda Mirtemirning ham tarixi edi. U jindakkina noiloj siylov barobarida surgun-u qamoqlarni, haqorat-u xo'rliklarni ham ko'rgan.

Chingiz Aytmatov "Biz Mirtemir siyosida o'zbek adabiyotini qadrlar edik" deganida ko'p narsani hisobga olgan. Adib ulug' mezonkash ham edi. Tarozini teng tortib ko'rmasdan gapirmasdi.

Odatda shoirlarning iqtidori va mahorati haqida gap ketganda ularning so'z boyligi taroziga qo'yiladi. Xalqlarning boyligi haqida gapirilganda ham bu xalqlar tilida qancha so'z boyligi borligi ularning tafakkur darajasini belgilashda muhim omil sanaladi. Mirtemir she'rlarida o'zbek tilining noyob bir lug'ati yashirinib yotibdi. Agar yosh olimlarimizdan biri Mirtemir she'rlarida ishlatilgan so'zlar lug'atini tuzib chiqsa, o'zbek tili uchun, o'zbek xalqi uchun katta bir ish qilgan bo'lardi.

Mana bu satrlarga e'tibor qiling:
Yo'l-yo'lakay bepoyon ang'iz,
Gala-gala kezar tuvaloq,
Salt g'o'nonda boraman yolg'iz.
Shu uchtagina satrga to'rtta qadimiy, unutilayotgan so'z mahorat bilan olib kirilgan. Ang'iz nima, tuvaloq nima, salt nima-yu g'o'non nima? Bunday so'zlarni bilmasdan ham yallachilik qilib yuraverish mumkin. O'sha davrda, XX asrning 30-yillarida ko'plab qalamkashlar yangi internatsional so'zlar izidan, "sotsialistik so'zlar" izidan chopib yurganda, sevgilisiga qarab "Sening sochlaring zavod trubasidan chiqayotgan tutundan ham uzun bo'lib ketdi"

kabi tuturiqsiz "izhorlar"ni tizayotganda, Mirtemir qadimiy so'zlar izidan, turkiy ruh izidan bordi. Zamona zayli bilan emas, zamona zulmi bilan o'layotgan turkiy so'zlarni she'riyatga olib kirdi.

Gap kelganda men sizga Mirtemir domlanning o'g'li Mirza aka bilan bo'lgan bir gurungni aytib beray. Shoir "Manas"ni tarjima qilayotganda bitta qadimiy so'zga duch kelib qoladi. Rosa harakat qiladi, lekin shu so'zning asl ma'nosini topolmaydi. Olimlardan so'raydi, shoirlardan so'raydi, natija chiqmaydi. Shundan so'ng Mirtemir kichik o'g'li Mirza akani yetaklab yo'lgacha chiqadi, Qirg'izistonning poytaxti Frunzega, hozirgi Bishkekka uchib boradi. O'z hisobidan, albatta. U yerda domla ilmiy tekshirish institutlariga borib, tilshunoslardan, olimlardan shu so'zning ma'nosini surishtiradi. Lekin ular ham turkiy so'zlar masalasida Mirtemirdan ustun bo'lolmasa kerakki, aniq bir javobni aytolmaydilar. Institutlardan bir gap chiqmagach, shoir o'g'li bilan yetaklashib, qirg'iz ovullariga chiqib ketadi va o'sha ovullarda yurib, kexsa chollar, kampirlardan so'rab shu so'zning asl ma'nosini topadi. Endi bir tasavvur qiling, bittagina so'zni tarjima qilish uchun shuncha harakat, shuncha mehnat. So'zga sadoqat, adabiyotga sadoqat haqida ko'p gapiramiz, lekin so'z va adabiyot uchun shunday ishlaymiz.

Shoir so'zni teran anglagan. Masalan, u "yaylov"ni "yayloq" deb ishlatgan va yayloq yozloq ekanini yaxshi bilgan.

Men ham ko'kka ko'z tashlab,
Baralla gurgung boshlab,
– Chaqmog'ingni chaq, – deyman.
– Bu olis yaylog'imga,
Bu olis aymog'imga
Sel-sel bo'lib oq deyman.

Mirtemir she'rlaridagi ruh butunlay o'zbekona. Satr qurilishidan tortib ohanglarga, ifoda-yu xulosagacha, ramzlargacha, xullas, hammasi o'zbekona.

– Yangajon, – dedim,
– Qaynimov, – dedi.
– Berroq kel, – dedim,
– Aynimo! – dedi.

Mirtemirning shaxs sifatidagi timsolida haqiqiy do'ng o'zbek misoli ko'rinadi. "Do'ng o'zbek" degan ibora bor. Bu baland o'zbek degani. Do'ng so'zida mardlik, tantilik, halollik, ulug'lik xislatlari jam bo'lgan. Shu o'rinda birgina misol. Mirtemir domlanning Ishchilar shaharchasidagi uyiga Oybekning xonadoni joylashgan ko'chadan o'tib boriladi. Mirtemir ishga borib kelishda har kuni shu ko'chadan o'tgan. Oybek vafot etgandan

She'riining ASL DEHQONI

keyin har gal Oybekning uyi yonidan o'tayotganda Mirtemir mashinani to'xtatib, pastga tushib, qo'lini ko'ksiga qo'yib, "Assalomu alaykum!" deb Oybekning uyiga salom berib o'tar ekan. Bir gal Qozog'istondan kelgan mehmonlar bilan uyiga qaytayotgan Mirtemir gurungga berilib ketib, Oybekning uyi yonidan salomsiz o'tib ketadi. Uyiga borib, xatosini bilib qoladi va ayb ish qilib qo'yganday qattiq o'kinadi. Bunday mehr va oqibat yana qayda bor? Afsuski, bugungi kunda ustozining uyiga tosh o'tib qochib ketadigan shogirdlar ham yo'q emas.

Mirtemirning soddaligida buyuklik bo'lgan. Do'rmonda Abdulla Oripov bilan gurunglashib o'tirganimizda, gap ustozlar haqida ketib, Mirtemir domlaga taqalganda Abdulla aka "Mirtemir aka masalasida o'zimni kechirolmaydigan paytlarim bo'lgan", deb qoldi. Men "Abdulla aka, sizda bunday bo'lmagan bo'lsa kerak. Yo biron joyda domlani xafa qilganmidigiz?" deb so'radim. "Yo'q, – dedi Abdulla aka. – Men Mirtemir akani hamisha yaxshi ko'rganman. Oybek, Shayxzoda, Mirtemir... Bular puflab shishirilgan, qo'lda yasalgan shoirlar emas edi. Puflab shishirilgan shoirlar ko'p edi, birovgacha so'z berishmasdi, Toshkentdan Moskovgacha minbarlar ularniki, hay'atlarining egalari ular edi. Bu kalondimog'lar Shayxzoda, Mirtemir kabi shoirlarni uchinchi yo'trtinchi darajali qalamkashlar sanab oyoq uchida ko'rsatardilar, o'zlaricha daho edilar. Shuning uchun Mirtemir akalar nafasi ichida, dardi ichida, alom va armon bilan bu dunyodan o'tib ketishdi. Lekin gap boshqa yoqda. O'sha zamonlarda noz-u ne'matlarga to'liq katta-katta davralar bo'lardi. Davralarning to'rida kommunistik partiyani sharaflab, sovet otini choptirib, bayroq ko'tarib yurgan yozuvchi-shoirlar o'tirardi. Ular Mirtemir domlanning ustidan kulib, mazax qilib, obqochishib, gumburlab qah-qah otganlarini ko'rganman. Menga alam qiladigani o'sha paytlarda shartta o'mimdan turib, "Ey muttahamlar, sizlar o'zi Mirtemir akaning oldida kimsizlar, uning timog'iga ham arzimaysizlar-ku, uning ustidan kulishga nima haqqingiz bor?" deb isyon ko'tarolmaganman. Shunga o'zimni kechirolmayman" degan edi. Ha, Abdulla akaning alami o'shanda ichida qolgan. Keyin ular "Shu gaplarimni aytсам bo'lmasmidi siz tirik chog'da" kabi Mirtemir haqidagi go'zal she'rlarga aylangan. Yoki Abdulla akaning keyingi yillarda yozgan bir she'ri hozir men aytayotgan gaplarning davomi. Bu she'rda shoirimiz ko'pchigan davralarda soxta shoirlar bir-birlarini sen Pushkinsan, bu esa Navoiy, bu esa dahodir, bu esa buyuk deb bir-birlarini pufakday shishirib maqtab yotishganini va haqiqiy shoirlarni yo'qotish payida bo'lganlarini tasvirlaydi va she'rni shunday yakunlaydi:

Uch-to'rt shoir to'planib olib,
Bir-birlarin maqtashar biyiron:
– Men Pushkinman, sen – Mirzo G'olib,
U – Navoiy, bu esa – Bayron.
Alahlashar bitta niyatda:
Unisin ot, bunisin yemir.
To tonggacha adabiyotda
Ter to'kadi yolg'iz Mirtemir.
Ba'zida o'ylab qolaman: Mirtemirning ustidan kulgan o'sha odamlardan nima qoldi? Ba'zilaridan bitta satr ham qolmadi. Bir qop xashak ham yo'q. Tarix shamoli ko'plarini supurindiday supurib tashladi.

Mirtemirning shunday satrlari bor:
Daryo edim, zamonlarning zayli bilan

soy bo'lganman,
Raso edim, nodonlarning mayli bilan
yoy bo'lganman.

Shu ikki satr ham Mirtemir qayg'usini namoyon qiladi. Zamon shunday zamon ediki, u ayqirib oqqan daryoni soyga, istasa ko'lmakka aylantirishga, hatto katta dengizni ham quritib Sahroyi tuzga aylantirishga qodir edi. Bunday zamonning shotirlari – millat xoinlari o'zlarining qo'g'irchoqboz xo'jalari bilan birgalashib har qanday rasoni yoy, har qanday tog'ni tuproq qila olardi.

Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Men uchun yig'lasin, men yig'lab bo'ldim.

Mirtemir domla umrining so'nggi yillarida yozgan shu she'rda juda ko'p narsani anglasak bo'ladi. Shu ikki satrda butun bir o'zbek xalqining 70 yillik dardini ko'rish mumkin. Ya'ni, mustabid tuzum davrida o'zbek xalqi boshidan kechirgan tahlika va talotumlarni Mirtemir ham boshidan kechirdi. Naim Karimov "Mirtemir aka keksayib, umri oxirlab qolgan chog'larda ham "Bular (KGB nazarda tutilyapti) meni bir kuni olib ketib qolishadi" deb xavotirda yashardi", degandi.

U tarjima sohasida ham juda mahoratli edi. Har qanday boshqa til shoirini o'zbek tilida kuylatib yuboradi. Abdulla Oripov Mirtemirning nafaqat she'rlarini, tarjimalarini ham juda yaxshi ko'rardi. Abdulla aka Pyotr Yershovning "Bukri toychoq" dostonini Mirtemir tarjimasida yoddan aytganini ko'rganman.

Bir kuni mashhur sharqshunos Shoislom Shomuhamedov bilan Mirtemir domla haqida gaplashib qoldim. Shoislom aka Umar Xayyom ruboiylarini tarjima qilganda dastlab G'afur G'ulomga ko'rsatgan ekan. Ustoz G'afur G'ulom tarjimalarni ma'qullagan. "Keyin do'stlarimdan biri Mirtemir akaga ham bir ko'rsatib oling deb maslahat berdi, – deb eslagandi Shoislom aka o'shanda, – nashriyotga, Mirtemir akaning oldiga bordin va Xayyomdan qilgan tarjimalarimni ko'rib berishlarini so'radim. Mirtemir aka darrov uyiga telefon qildi va kelinoyimizga kechqurun mehmon borishini, tayyorgarlik qilib qo'yishni tayinladi. So'ng kechroq ishdan chiqib, Mirtemir akaning uyiga yo'l oldik. Ustoz yo'lda "Shoislom, endi Xayyomni shunchaki ko'rib bo'lmaydi, xayyomona ko'rish kerak" deb do'konga kirib konyak olib chiqdi. Oshdan so'ng tarjimalarni birga ko'ra boshladik. Men shunda Mirtemirning so'z bilan ishlashiga qoyil qolganman. Har bir so'z, har bir satr ustida erinmay zargarday ishlardi. Men mukammal deb o'ylagan ko'plab satrlarni chizib, butunlay o'zgartirib tashlagan".

Mirtemir haqida "she'rning tanti dehqoni" degan ibora topib aytilgan. Har bir she'rda Mirtemir akaning manglay terini, yurak qo'rini, dardini sezsa bo'ladi. Asl dehqon ham shunday. Mirtemirning qizi Yulduz Mansurova otasining qo'li bilan havoga she'rlar yozganini aytib berganda shoirming faqat she'r bilan yashaganini his qildim va Shavkat Rahmonning o'lim to'shagida yotganida "She'rni havoga ham, devorlarga ham yozsa bo'lar ekan" degan gapi esimga tushdi.

"Ko'rmaganning ko'rgani qursin" deganlariday, shuhrat tamasidagi ba'zi shoirlar to'rtta she'rni yozib, keyin u xalqidan emas, go'yo xalqi undan

qarzdorday kibrga berilib, to'ygan xo'rozday qichqirib yuradilar. Shunday paytlarda bunday olg'irlarga xokisor-dongdor Mirtemir dars berib qo'yadi: "Boshimga sinovli kunlar ham tushdi. Lekin yozishdan, tarjimadan hech tinmaganman. Urinaman, izlanaman, o'rganaman. Hali men yozuv stoliga astoydil o'tirganim yo'q, hali xalqimga aytishim kerak bo'lgan gapni aytolganim yo'q. Mendan non va tuzni ayamagan, ham sharaf bag'ishlagan xalqimdan hali men ko'p qarzdorman".

"Ona tilim", "Betobligimda", "Saratonda soyaboning bo'layin", "Bitta o'zim bilaman" kabi o'lmas she'rlarni, o'zbek she'riyatida katta voqea bo'lgan "Surat"day mumtoz dostonni yozib-yaratib qo'ygan shoir tag'in kun kelib, "Ba'zan ko'zlarimda tomchi-tomchi yosh, Hanuz she'r yozishni bilmayman" desa... U Xudoning qanday bandasi ediki, horg'in ruhida shunday ulug'lik va shunday xokisorlikni birlashtirolsa...

Ko'pchilik Mirtemirning otini ataganda "domla" so'zini qo'shib aytadi. Bu bejiz emas. Chunki Mirtemir chin ma'nodagi millat muallimlaridan biri edi.

Men Mirtemir domlani ko'rolmaganman. Uchrashmaganman. Lekin menga shunday tuyuladiki, u kishi bilan ko'p uchrashganday, ko'p ko'rishgandayman. Har bir she'ridan Mirtemir domla bizga qarab turganday tuyulaveradi.

Bugungi yosh ijodkorlar Mirtemirni o'qishadimi? Bu savol ham meni qiynaydi. Negaligini aytib o'tirmay. Buni yoshlarning o'zi biladi. Faqat ularga Mirtemirning bir she'rini keltirib o'tay. Bu she'r ularga bag'ishlangan, ya'ni o'zbek she'riyatiga kirib kelayotgan har bir yangi avlod vakillariga atalgan. Ta'bir joiz bo'lsa, bu she'rni o'zbekning yangi avlodiga Mirtemir domlanning vasiyati degan bo'lardim.

KIPRIKLARIM (Yosh qalamkashlarga ataganim)

Kipriklarim qo'ng'irmikin yo qora?
Kipriklarim yuztamikini yoki ming?
Kipriklarim muncha aziz va sara,
Ko'zginamning kipriklari...
Quyumlarda qolganimda,

changga o'ralganimda,
Ohangaron to'zonidan zanjil qoralganimda,
Yoki yaxshi timsol izlab,
changday taralganimda,
Yoki bir she'r armonida yuz bir

ko'ralganimda,
O'zbekiston tonglarini bedor kutgan

ko'zlarim,
Tengsiz tonglar falsafasin tashna
yutgan ko'zlarim.

Ko'zlarimga chegarada shay askarday
qo'riqchi,
Ko'zlarimga olis Bobur g'ussasiday yo'riqchi,
Ey aziz kipriklarim.
Sergaklikda tiriklarning siz-ku

eng tiriklari,
Kiprigimday azizlarim,
nechoq'liq ham suyuksiz.
Armonimday buyuksiz...

Eshqobil SHUKUR

YANGI NASHRLAR

Tildosh-u dildosh qardoshimiz

Taniqli qrimtatar jurnalisti, Qrimdagi "Nenkajan" jurnali bosh muharriri Zera Bekirovaning qrimtatar tilida "Akmasjid" nomli kitobi chop etildi. XX asrning 20–30-yillarida sobiq Ittifoq bo'ylab juda keng ko'lamli ilmiy-adabiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan qrimtatar ziyolisi Bekir Cho'banzoda (1893–1937) hayoti va ijodining bir qirrasini O'zbekiston bilan ham bog'liq. Muallif o'z kitobida olim, shoir, jamoat arbobi Bekir Cho'banzodaning Ozarbayjon, Turkiya, Mojariston, Qrim hamda O'zbekistonga taalluqli jihatlarini maxsus suhbatlar asosida batafsil yoritadi.

Bekir Cho'banzodaning bir qator maqolalari o'z vaqtida "Alanga" jurnali, "Qizil O'zbekiston" gazetasida bosilgan edi. 1926-yili Bokuda o'tkazilgan Turkiyot qurultoyi tashkilotchilaridan biri bo'lgan Bekir Cho'banzoda, ayni anjuman kunlarida Alisher Navoiy tavalludining 500 yillik yubileyini o'tkazish hay'ati a'zosi sifatida ish boshida turgan. U "Navoiy tilchi" nomli maxsus maqola ham yozadi. O'sha anjuman kunlari bosilgan Alisher Navoiyning "Vaqfiya" asariga hamda Husayn Boyqaroning "Devon"iga maxsus so'zboshi bitadi.

Bekir Cho'banzoda o'z vaqtida Farg'ona shahrida tashkil qilingan Pedagogika institutida 1930–1935-yillari (hozirgi Farg'ona davlat universiteti) "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasining mudiri bo'lib ishlagan edi.

1926-yili Bokudagi Turkiyot qurultoyiga O'zbekistondan Elbek, Ismoil Sadriy, Ashurali Zohiriy, Rahim Inomov, Shokirjon Rahimiy, Nazir To'raqulov vakil bo'lib boradi. Alamlari jihatida shundaki, ayni anjumanda qatnashgan barcha ziyolilar qatag'on bo'hroniga duch keladi, qatl qilinadi. Bekir Cho'banzoda manglayiga ham shu bitik muhri bosilgan edi.

"Bekir Cho'banzoda izlaridan" kitobi muallifi olim faoliyatining turli jihatlarini o'rganish jarayonida qrimtatar, ozarbayjon, mojar tadqiqotchi-ziyolilari qatorida o'zbek adabiyotshunoslari bilan ham suhbatlashadi. Kitobda berilgan yangi ma'lumotlar ma'rifat-parvar qardoshimiz adabiy-ilmii qiyofasini teranroq tasavvur qilishga yordam beradi. Yana bir qo'shimcha shuki, "O'zbek adabiyoti tarixi" kitobi muallifi adabiyotshunos olim Vohid Abdullayev o'zining "Cho'banzoda mening ham ustozim" maqolasida 30-yillari Samarqand universitetida Bekir Cho'banzodadan bir necha marta ma'ruzalar eshitganini ham yodga olganidan xabarim bor.



Kirish so'zida muallif yozgan kitobi xususida "Bu ish men uchun ham burch, ham sharaf hamda buyukdan buyuk mas'uliyatdir", deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, "Bekir Cho'banzoda izlaridan" kitobida o'zbek jadid adiblariga oid sahifalar ham bor. Jadidlik harakatini xalqaro miqyosda atrofikcha tadqiq etishda, tabiiyki, Zera Bekirova yozgan kitob ham o'z qiymatiga ega. Muallif o'zbek tilini juda yaxshi biladi. Nazarimda mazkur kitobning o'zbekcha nusxasi hozirlanib, mutaxassislar va shu sohaga qiziquvchi o'quvchilarga taqdim etilsa, foydali bo'lar edi.

Bahodir KARIM,
filologiya fanlari doktori,
professor

Adabiyot – bu xalqning xotirasi, qalbi va ruhiyatining eng teran aksi. Paydo bo'lgan chinakam asarlar esa vaqt sinoviga bardosh berib, avlodlar ongiga iz soladigan badiiy hodisalardir. Iste'dodli ijodkor Obid Qo'doshning yaqinda kitobxonlar hukmiga havola

etilgan "Unutilgan ashula"si ana shunday kitoblardan biridir. Mazkur to'plamdagi hikoyalar bugungi o'zbek nasrida o'ziga xos badiiy ifoda vositalari, teran ma'naviy-falsafiy mushohadalari va ichki ruhiy iztiroblari bilan alohida o'rin egallaydi.

“Unutilgan ashula”

"Unutilgan ashula" – bu oddiy hikoyalar to'plami emas. Bu – jamiyat xotirasi, milliy ong va inson qalbidagi abadiy kurashlar tasvirlangan ruhiy manzara. Kitob sahifalarida berilgan har bir hikoya o'quvchini hayratga soladi, o'yga toldiradi. Har bir voqealik – asl mohiyat bilan o'ralgan, har bir satr – chuqur ma'noni o'zida mujassam etgan. Muallifning falsafiy mulohazalari, ichki iztiroblari, insoni-etishda, tabiiyki, Zera Bekirova yozgan kitob ham o'z qiymatiga ega. Muallif o'zbek tilini juda yaxshi biladi. Nazarimda mazkur kitobning o'zbekcha nusxasi hozirlanib, mutaxassislar va shu sohaga qiziquvchi o'quvchilarga taqdim etilsa, foydali bo'lar edi.

Kitobda keltirilgan hikoyalar o'quvchi ongida beixtiyor "ko'rmaslikka olayotgan haqiqatlarimiz"ni ko'rsatadi. Muallif har bir hikoya orqali hayotdagi oddiy, biroq chuqur ijtimoiy va ruhiy ma'noga ega voqeiklarni ochib beradi. U voqeani aytmay-

di – his ettiradi. Aynan mana shu his – "Unutilgan ashula"ni unutilmas asarga aylantiradi.

Obid Qo'doshning bu hikoyalarini bittada anglab olish uchun falsafiy dunyoqarash kerak deb o'yladim. Chunki o'qish va uqish bir xil narsa emas, birida ko'zlarning o'qisa, birida onging, qalbing va butun vujuding o'qiyladi. "Unutilgan ashula" kitobi esa ham o'qishga, ham uqishga ilhomlantiradigan asar. Unda teran fikrlar, badiiy ifodalar va o'zgacha mohiyat bor. Asarda tasvirlangan hikoyalar faqatgina bir shaxsning taqdiri, bir oilaning fojiasi yoki bir manzaraning holati emas. Bu – butun jamiyatning ruhiy holati, axloqiy qiyofasi, tarixiy xotirasi va unutilgan haqiqatlarga chizilgan badiiy portretidir. Har bir hikoyada berilgan tafsilotlar zamirida kitobxon o'zini, atrofidagilarni, o'z



jamiyatini ko'radi. Muallif qahramonlari shunchaki voqealarning qatnashchisi emas, balki ichki iztiroblar, ziddiyatlar, qaror va tanlovlar bilan yuzma-yuz kelgan inson sifatida yoritilgan.

Har bir hikoya, har bir adabiy-falsafiy o'yalar kitobning umumiy ruhini, muallifning ijodkor sifatidagi qarashlarini, hayotga, xalq ruhiyatiga va milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini aniq ifodalaydi.

Bu asar – ijodkorlik mas'uliyati, milliy xotira, badiiy fikr va falsafiy mulohazalarning mukammal uyg'unligidir. Chunki bu "ashula" – biz unutilgan, ammo qalbmiz tubida hanuz jaranglab turgan hayot taronasidir.

Farangiz ABRUYEVA,
O'ZJOKU talabasi



Boshlanishi 1-sahifada.

Men jo'raboshiga qaradim, u savol berishi kerak bo'lgan do'stimizga qarab ma'noli tomoq qirdi. Nihoyat savol so'raldi:

– Domla, arab tilini yaxshi bilarkansiz, arablar piyolani nima deydi?

Ustozning qoshlari chimirildi, ammo sir boy bermay, piyola, choynak, likopcha, lagan, tog'ora, qozon, cho'mich, qoshiq va boshqa shu kabilarni arablar bir necha lahjalarda nima deyishlarini, mehmondorchilik, dasturxonga taom tortish udumlarini batafsil so'zlagach, savol bergan kishiga qarab:

– Birodar, sizga shu ma'lumotlar kerakmi o'zi? – dedilar ranjib.

Alixonto'ra tirik xazina edi. Bir necha tillarni mukammal bilardi u zot. Afsuski, biz u kishidan ko'p narsalarni so'ramadik. Mana endi afsusdamiz, ammo foydasi yo'q...

Kitoblardan birida o'qiganman: “Suhbati oshiq sen oshiq qilur, suhbati fosiq seni fosiq qilur”.

Xo'p, deyman o'zimga o'zim, Alixon-to'radek ulug' alloma bilan yashobmiz bo'libmiz, bir muddat birga yashabmiz, tengma-teng nafas olibmiz, bir dasturxonda taomlanibmiz, ammo u kishining ummon yanglig' ilmidan bahramand bo'lmabmiz-da! Ehtimol, istihola qilgandirmiz, salobatlati bosgandir?

Shundoq deb o'zimizni ovutmoqchi bo'lamiz, lekin ilmiy, zehniy, ma'naviy kemptik joylarimizni to'ldirishga qodir boshqa allomalar ham bor edi-ku? Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufdan so'radikmi? Alibek Rustamiy, G'aybullas as-Salom, Erkin Vohidov, Najmiddin Komilov, Botirxon Valixojayev kabi ustozlardan-chi? Bugungi yoshlar Qori Niyoziy, Habib Abdullayev, Izzat Sulton, Abduqodir Hayitmetov, Suyima G'aniyeva, Po'lat Habibullayev kabi salmoqli olimlarimizni nechog'li bilishadi?

Ne'matilla Ibrohimov ustoz Erkin Vohidovni shunday xotirlaydi: “Erkin aka har yili Ozarbayjon va Turkiyada o'tkaziladigan fuzuliyxonlik tadbirlarida qatnashib turardi. Istanbulda o'tkazilgan ana shunday yig'inlarning birida eronlik, ozarbayjonlik va turkiyaliklar Fuzuliy o'zlariniki, deb bir-birlari bilan bahslashib turganlarida Erkin aka bu ulug' qalam sohibining “Layli va Majnun”ini yoddan o'qib berganlar. Hay'at a'zolari bir ovozdan: “Bo'ldi, bo'ldi,



Fuzuliy sizlarniki ekan”, deb g'oliblikni o'zbek shoiriga topshirishgan. Yana bir gap. Qibraydagi bog'imizda ham tez-tez g'azalxonlik kechalari bo'lib turardi. Ayniqsa, Saudiya Arabistonida istiqomat qiluvchi vatandoshlarimiz Safoxon to'ra, A'zamxon qori aka, Meliboy aka, Mo'minjon aka va boshqalar kelishganida biz ularni bog'imizga taklif qilar edik. Bu majlislarda Erkin aka, Shamsuddin Boboxonov, Abdulaziz Mansur, muftiy Usmonxon Alimov, marg'ilonlik Osimxon aka, taniqli san'atkorlar ishtirok etishardi. Shunday kechalarning birida Fuzuliy va Navoiy g'azallarining tahliliga bog'ishlangan bahs qizib ketib, tong yorisha boshlaganini sezmay qolibmiz. Bu dilbar suhbat tasvirga olinmaganidan Shayx Abdulaziz Mansur, muftiy Usmonxon aka, hammamiz anchagacha afsuslanib yurdik... Qiyomatli akam Erkin Vohidov bilan o'tgan davrlarim, sermazmun suhbatlarimiz hayotimning eng totli, qiyossiz lahzalari edi”.

Qiziq odatimiz bor-da: oldimizda kim turganiga uncha e'tibor bermaymiz, shovullab oqayotgan daryoni sezmaymiz, sho'lar yillar davomida jon va qon bilan to'plagan xazina yanglig' ma'naviy boylikning oldidan beparvo o'tib ketamiz. Ushbu satrlar qog'ozga tushayotganida internetda g'aroyib xabar tarqaldi. Fransiyalik fermer Mishel Yunon o'z yer uchastkasidan 4 milliard dollarlik oltin topib olgan. Fermer xazina topilgan joydan har kuni bir emas, bir necha marta o'tgan, ammo shuncha boylik yerda yotgani xayoliga ham kelmagan. Chingiz

Aytmatovning “Jamila” qissasi ham fransuz tilida e'lon qilingach mashhur bo'ldi.

E'tiborsizlik yomon illat. U bois insoniyat ko'p hollarda fermer Mishel topgan xazinadan ham ko'p boylikdan judo bo'ladi. Buning sababi – ko'pchiligimiz bag'rikeng emasmiz, xatolarni mardona tan olmaymiz, uzr so'ramaymiz, qalb ko'zimiz ochilmagan. Mening fikrim to'g'ri, boshqalarniki noto'g'ri degan o'y vujudimizni egallab olgan.

Necha asrlarki, ulug' mutafakkir, g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy bobomizning insoniyatni ezigulik, odamiylik, mehr-oqibatga da'vat etuvchi asarlari sevib o'qiladi. Navoiyshunos olimlar bu buyuk xazinani tadqiq etar ekanlar, uni o'qib anglaymizki, adolat, haqiqat, imon, e'tiqod, ezigulik kabi fazilatlarisiz yetuk insonni, komil jamiyatni, xalqparvar davlatni tasavvur qilish qiyin. Har qanday adolatsizlik, haqsizlik jamiyat rivojiga, tinch-totuv hayotga, ahilinoqlik yo'lga to'siq bo'ladi, adolat chirogi yonib, chor-atrofga shu'la taratib turmagan joyda ulg'ayish bo'lmaydi, el-ulusning peshonasi oqarmaydi.

Navoiy bobo umrini shu buyuk haqiqatga bag'ishladi. Buni hech kim inkor etmaydi, ammo, boshqa davrlarni qo'ya turaylik, Navoiy yashagan davrning o'zi bu mo'tabar zotni tushundimi, qalbiga, orzu-niyatlariga quloq tutdimi? Yo'q, tutmadi. Tutganida edi, “Xazoyin ul-maoniyy” asari debochasidan bunday oh-nolali satrlar joy olmagan bo'lardi: “Oldimga oncha dushvorliklar yuzlandi va tegranda oncha sa'b giriforliklar aylandi va boshimg'a sipehr oncha balo toshlarini otdi va ishq sipohining lagabkubi (tepki, zarbalari) zaif paykarim bila so'ngaklarimni oncha oyoq ostida ushotdikim, ne o'zimdand xabarim, ne o'zlugim bila o'zimdind asar qoldi”.

Yon daftarimda “Agar inson bir-birini tushunganida edi, bu dunyoda yashash yanada zavqli, maroqli bo'lardi”, degan yozuv bor. O'zimga kelgan fikrmi yo biror kitobda o'qiganmanmi – aniq ayta olmayman. Ammo inson tushunish mumkin bo'lgan oddiy narsalarni nega tushunmaydi, ko'rib-bilib tursa ham, o'zini ko'rmaganday, bilmaganday tutadi, his etgan narsalarini

e'tirof etishga jur'ati yetmaydi, aksincha, boshqalarning yutug'ini ko'rib, fitna, hasad, ig'vo yo'lga o'tadi, nega shunday qiladi, degan savollar qiynaydi. Balxga borsa, Mahmudxon dorga osishini bilsa ham, yo'ldan qaytmagan Boborahim Mashrab qachon tushunilgan? Ibn Sinoni tushunish oson bo'lganmi? Bobur Mirzoni-chi? Nasimiyni-chi?

Dorga osilgan yana bir alloma Mansur Xalloy edi. Uni ham tushunmadilar, uni birinchilardan bo'lib fransiyalik olim Lui Massinon tushundi. U shayx Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” kitobini o'qigach, butun umrini Xalloyni o'rganish, tushunishga bag'ishladi. Yaponiyalik olim Eyji Mano o'zini boburshunoslikda topdi. Amerikalik olim Yuriy Bregel o'ttiz yildan ortiq vaqt sarflab, Munis va Ogahiy qalamiga mansub “Firdavs ul-iqbol” asarining tanqidiy matnini tayyorladi. “Bu alloma falon millatniki, falon yurtga tegishli”, degan gap chiqmadi.

O'ylab qolasan. Insonni tushunish, Rumiyl hazratlari aytganidek, bu dunyoni o'zaro baham ko'rib yashash, nahotki anglash ilojisiz sir, tugun bo'lsa?

Navoiy hazratlariga qaytamiz. Bu ulug' zot “Muhokamat ul-lug'atayn”da rohat-u zahmat bilan qorishib ketgan umr yo'llari haqida yozar ekan, bu yo'l bir tekis kechmagani, haqorat va mashaqqat vayronalarida dod solib yig'lagani, yarashtirish niyatida o'rta tashib, tuhmarga qolgani, ilm madrasalarida kovush qatorida yer tutgani, ulamo majlislarida ilm nuridan ko'nglini yoritgani, taqvodorlar majlislarida ular qadami yetgan yerga yuz qo'ygani, sajdadan peshona terisi shilingani, pastkashlar, nokaslar oldida xorlik va bee'tiborlik ko'rgani haqida yozadi. “Lison ut-tayr”da bu savolga javob topganday bo'lamiz: “O'n sakkiz ming olamni yaratgan Xudo “Tongni oppoq rang bilan yoritdi, shomni mushkin qora libosga o'radi. Quyoshni kunduzi porlatib, Oyni kechani shamiga aylantirdi... Suvni olovga dushman qildi, shamolni tuproqqa zid qildi. Yaratuvchining qudrati bilan ayni shu bir-biriga zid to'rt narsa inson vujudida bir butun holda birlashdi...”

Tushunilmagan faqat Navoiy emas, Mashrab yo Bobur Mirzo emas. Xalqimizning har bir bo'g'in allomalari, olimlar, ijodkor ziyolilari orasida tushunilganlardan ko'ra tushunilmaganlar ko'p. Rauf Parfi “She'r – kunduzi ko'rigan tush”, deb yozdi. Halima Xudoyberdiyeva “Vatan bayrog'i imoratlari peshtoqidand avval millat qayg'usidagi har yurakda hilpirab tursin”, dedi. Shavkat Rahmon turkiy dunyo birligini orzulang yashadi. Biz ularni endi-endi tushunmoqdamiz. Donishmand Osho “Eshitmoq va tinglamoq Xudo qasri sari yo'ldir”, deydi.

1990-yilning may oyi. Sobiq tuzum parchalana boshlagan kezlar. Uning o'sha paytdagi rahbari isyonkor Boltiqbo'yi davlatlariga borib, ittifoq tarkibidan chiqish harakatlarini to'xtatmoqchi bo'ldi. Riga ko'chalarida namoyishchilar bilan uchrashdi. Yo'l chekkasida yig'lab turgan bolaga ko'zi tushib, uning oldiga keldi va “Bolakay, qani menga ayt-chi, nega yig'layapsan, senga nima kerak?” deb so'radi. Bola: “Menga ozodlik kerak!” dedi. Shu oddiy javob sobiq ittifoq tanazzulini tezlashtirib yubordi, desak xato bo'lmaydi.

Teatr va kino sahnasida bemisl muvaf-faqiyatlarga erishgan Rimma Ahmedova hayotining so'nggi kunlarida boshiga ne dushvorliklarni solgan kishilarga nisbatan: “Men ularning hammasini kechirganman, ko'nglimda kek qolmagan... Ular uchun ham ibodat qilaylik, ko'ngilni tozalaylik”, degani yodga tushadi. Ko'ngilni tozalash nima? Uning kirlanib ketmasligi uchun har qanday holatda ham adolatli bo'lish. Bu oddiy fazilat kechadan bugunga, bugundan ertaga qolmasligi zarur.

Hayot charxi aylanishda davom etar ekan, yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat, adolat va zulm hamisha yonma-yon yuradi. Inson bularning birini anglagani sari, anglanmagan haqiqatlar ochilishiga ishonchi ortadi. Shu ishonch uni yuksak ma'naviy cho'qqilarga ko'taradi.

Darvoqe, Ne'matulla aka haqida yozmoqchi edim. Xolislik xomasini qo'lda mahkam tutib, albatta, yozaman.

Ahmadjon MELIBOYEV


Boshlanishi 1-sahifada.

1911-yilda ularning soni 57 protsentga ko'paydi”. Bu degani – ushbu hududlarda o'n olti yilda maktab va madrasalar soni deyarli olti mingga yetgan. Agarda har bir maktab va madrasada o'rtacha 100 nafar (madrasalarda to'rt-besh barobar ko'proq aslida) bola ta'lim oldi, deb taqriban hisoblaganimizda ham olti yuz ming nafar bola savod chiqargani ma'lum bo'ladi. Shu o'rinda qadimdan “ilm va hidoyat markazi” deb tan olingan Buxoroda qancha maktab va madrasa bo'lgani va ularda necha ming nafar yoshlar saboq olganligini o'zingiz tasavvur qilavering.

Yoki sovetlar yana bir ma'lumotnomada rasman qayd qilganlariga ishonsak, 1917-yilgi inqilob arafasida o'lkada to'rt mingga eski maktab faoliyat yuritgan va ularda ellik mingdan oshiq bola tahsil olgan. Bular rasman aniqlangan maktablar. Bunga chekka hududlarda ilmiy kishilar o'z uylarida qo'ni-qo'shnilarning bolalari savodini chiqarishgani, shu jarayon qizlarga ham tatbiq qilinganini qo'shib qo'yamiz. Negaki, sovet bilimdonlari “oktyabr inqilobiga qadar Turkistonda xotin-qizlarning atigi 0.4 foizi savodli edi” degan bo'lmag'ur iddaoni ham uzoq yillar targ'ibot bayrog'i qilib kelishgan.

Xiva xonligi Chor hukumati tomonidan bosib olingan davrda hududda olti yuz ming kishi yashagan. Xonlikdagi aholi yashash manzillari ma'muriy jihatdan “machit (masjid) qavmi” ko'rinishida yuritilgan. Aholidan soliq undirilishi bo'yicha saqlanib qolgan hisobotlarda xonlikda mingdan ortiq machit qavmi bo'lganligini ko'ramiz. Birgina Xivada 220 masjid bo'lgan. Shahar va qal'alardagi yirik madrasalarning har birida o'rtacha yuz nafar toliblar saboq olgan bo'lsa, masjidlar qoshidagi “eski maktablar”ning har birida 15–20 nafar bola savod chiqargan. Buxoro, Samarqand va Sharq shaharlaridagi mashhur madrasalarda tahsil olayotgan yoshlar ham talaygina edi. Bundan tashqari, eng chekka qishloqlardagi masjidlar qoshida o'g'il bolalar qatorida qizlar o'qiydigan, savod chiqaradigan maktablar ham mavjud bo'lgan. (Yurt tarixidan yaxshi xabardor Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” romanida kichik bir dahadagi masjid imomi oilasi misolida buni yaqqol ko'rsatib bergan).

Shu raqamlarning o'ziyoq chekka Xiva xonligida maorif tizimi manzarasini, ya'ni bolalarga saboq berishning o'z davri uchun nisbatan ancha yuqori bo'lganligini ko'rsatadi.



Chor bosqini bois qanchalab masjidlar vayron bo'lgani holatida el-ulus ta'limni biror on unutmagan, imkon topdi deguncha farzandlarini maktab va madrasalarga o'qishga yuborganini yuqoridagi “57 foizlik o'sish” yaqqol ko'rsatib turibdi.

Shu o'rinda madrasalarda toliblarga islom ta'limoti, Quroni Karim, hadislardan tashqari handasa, jug'rofiya, tarix va boshqa dunyoviy fanlar ham tizimli o'rgatilgani ulug' allomalard qoldirgan yodnomalarda qayd qilingan. Aynan dunyoviy fanlar puxta o'rgatilgani natijasida yurtimizdan jahon tamadduniga munosib hissa qo'shgan buyuk daholar yetishib chiqqan.

Sovetlar targ'iboti “biriq muhit”, “johiliyat o'chog'i”, “qoloq o'lka” kabi sifatlashlar bilan yomonotliq qilgan Turkistonda o'n to'qqizinchi asr ikkinchi yarmi va yigirmanchi asrning birinchi yarmi boshlanishida vujudga kelgan uyg'onish jadidlar harakatining paydo bo'lishi va keng yayilishiga yo'l ochdi. Jadidlar mustamlaka ostida qolgan o'lkani ozod va obod qilish uchun avvalo maorifni rivojlantirmoq, dunyoviy ilmlarni

o'rgatmoq, yoshlar zehniyatida inqilob yasamoq lozimligini yaxshi tushunishgan va bor bilimi, sarmoyasini shu ezigu ishga sarflaganlar, ammo...

Yuqoridagi kitobdan o'qiyimiz: “...1890-yillarda Qo'qon va Andijonda dastlabki yangi tatar maktablari vujudga keldi. Farq'onada tatar o'qituvchilari dastlab tatar aholisi yashaydigan joylarda yangi usul maktablari tashkil qildilar: bu maktablarda o'zbek bolalari ham o'qir edi...”

“...1893-yilda, o'sha vaqtda temir yo'lining oxirgi punkti bo'lgan Samarqandga Qrimdan musulmon maktablarining “islohotchisi”, panturkist Ismoilbey Gasprinskiy keladi. U Buxorodan chaqirilgan “qobiliyatli to'rt nafar yosh yigitga” tegishli ko'rsatmalar beradi: ulardan bir o'sha yili Samarqandda ochilgan yangi usul maktabida o'qituvchi qilib qoldirildi. Keyinchalik Gasprinskiy Samarqandda o'zbek jaddizmiga aylanib ketgan harakatga asos soldi. ...1908-yil u Buxoroga kelib ketgan”.

Jadidlik harakatining otasi Ismoil G'asprali o'lkamizga “yer osti boyliklarini izlab” emas,

millatning kelajagini yaratadigan “oltin boshli yoshlarni” izlab kelgani o'sha “qobiliyatli to'rt yosh yigitga tegishli ko'rsatmalar berganida” yaqqol ko'rinadi.

1908-yilda Chor Rusiyasi Dumasi a'zosi Palen janoblari Turkiston o'lkasini taftish qilish uchun keladi va barcha sohalarini sinchiklab o'rganadi. Uning Dumaga taqdim qilgan bir necha ming varaqli hisobotining bir qismi aynan “o'lkada keskin uyg'onishga poydevor yaratayotgan yangi usul maktablari” haqida edi. Palen alam va ogohlantirish bilan yozadi: “*Musulmon maktablarida yangi usulning tarqalish darajasidan o'lka ma'muriyati va maorif boshliqlari tamomila bexabar bo'lib chiqdi*”. Uning hisoboti ko'p o'tmay o'z natijasini berdi: 1910-1911-o'quv yilida Turkistonda ellikdan ortiq yangi usul maktablari yopildi. Qarangki, o'lka uyg'onishiga qarshi shum reja tuzilayotgan 1910-yilning yozida birgina Toshkent shahrida beshta yangi usul, ya'ni jadid maktablari ochilgan edi.

Agarda yangi usul – jadid maktablari yopilmaganida o'n yilning nari-berisida

ularning soni bir necha barobar oshgan, hech bo'lmaganda o'lkaning yarim hududini qamrab olgan bo'lardi.

Chor amaldorlari yangi usul maktablariga o'zlarining rus-tuzem maktablarini qarshi qo'yishdi. Bunday maktablarni ochishdan maqsad yerlik xalq farzandlariga bilim berish emas edi. Bu maktablarda asosan harbiylar va mustamlaka o'lkaga turli sohalarida ishlash uchun yuborilgan boshqa millat vakillarining bolalari o'qitilgan. Birgina misol: Petro-Aleksandrovs (To'rtko'l) shahrida 1874-yilda tashkil qilingan ana shunday maktabni 1917-yilgacha 118 nafar o'quvchi tugatgan bo'lsa, ulardan atigi 17 nafari mahalliy millat vakillarining farzandlari bo'lgan. O'sha mahalliy millat vakillari orasidan birinchi marta Yevropada tahsil olgan Muhammad hoji Aminaddin o'g'li, Xivada toshbosma usulida kitob chop qilgan, “O'tajon bosma” laqabi bilan tanilgan O'tajon Abdalov va boshqalar yetishib chiqqan.

“Ikki foiz savodxon” deyilmish yolg'onga qaytamiz. 1910-yilda Turkiston o'lkasida yashagan aholi sonidan kelib chiqqan holda savodlilik darajasi miqdorini taqriban hisoblaymiz: sovet tarixchilari rasman tan olgan eski maktab va madrasalardagi o'quvchi va toliblar soni bir yillik ko'rsatkichda o'rtacha olti yuz mingni tashkil etadi. Eski maktablar 4 yillik, madrasalar 7–10 yillik o'quv dasturiga ega bo'lgani inobatga olinsa, qirq yil, ya'ni bir avlod almashinuvi davrida ushbu raqam kamida uch-to'rt hissa oshadi. Bu esa eng kamida ikki millionlik raqamni tashkil qiladi. U yodga bolaligida savod chiqargan o'rta va keksa avlod maktab yoki madrasani tugatgach, bir kunda “savodsi bo'lib qolmasligi”ni ham inobatga olsak... “o'g'ri bo'l – insoli bo'l” deyilmish otaso'zimiz beixtiyor yodimizga tushadi – “ikki foiz” osmondan olingani ma'lum bo'ladi-qoladi.

Oshkoralik davrida matbuotda e'lon qilingan ayrim tadqiqotlarda “ikki foiz savodxonlik”ni o'sha vaqtda, ya'ni 1917-yilda rus tili va alifbosini bilganlarga nisbatan qo'llanilgan bo'lishi mumkin, degan taxminlar o'rta tashlandi. O'zlaridan so'rasak, deganlaridek, 1910-yilda Chor imperiyasida aholining savodxonlik darajasi atigi 6.5-7 foiz atrofida bo'lgan. Bu o'sha vaqtda ilg'or Yevropa mamlakatlariga taqqoslaganda eng past ko'rsatkich deb topilgan.

Bu yog'ni taqqoslash uchun kishiga oliy ma'lumot shart emas.

Ro'zimboy HASAN, jurnalist



TARIX VA TAQDIR

“O‘tkan kunlar”ni boshidan oxirigacha yoddan aytadigan, umrini qonunchilikda adolat ustuvorligi uchun sarflagan, xalqining ma’rifatli bo‘lishi, o‘z-o‘zini tanishi, anglashi yo‘lida qayg‘urgan bu insonni tez-tez yodga olaman. Vafotidan so‘ng deyarli chorak asr vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, ishxonam eshigi ochilib, ko‘zlarining tub-tubida mahzunlik, ma’yuslik in qurgan bu inson kirib keladiganday tuyulaveradi. Adham Muzaffarov ism-sharifli bu kuyinchak zotni haligacha qo‘msayman. U kishining suhbatlarini sog‘inaman.

Men u kishini ancha yillardan buyon tanir edim. Ayrimlar uni qahri qattiq prokuror deyishardi. Yana birlari esa o‘z ishi qolib, adiblikni da’vo qilayotir, deya yanishardi. Men bo‘lsam... mudom serharakat, ikki og‘iz gapini aytish uchun vaqt topib, o‘g‘li, nevarasi tengilar oldiga keladigan bu odamda allanechuk bir sir bor deb o‘ylardim. Balki, o‘shanda bu xayolga nechuk borganimni hozir aniq aytib berolmasman. Lekin baribir uni sirli odamlar toifasiga qo‘shib qo‘yganim aniq. Ehtimol, gaplasha turib ko‘zlarining tubida zuhur etib turguvchi iztirob menda shunday tasavvur uyg‘otdimikan? Yoki bo‘lmasa uning har gal nimanidir aytishga shaylanishi-yu, lekin ming azob bilan bo‘g‘zida tutib qolishini sezganim tufayli sir izlay boshladimmi?

Qayta qurish yillari edi. Bu galgi suhbatimiz sovetlar hokimiyatidagi adolat-sizliklar, butun dunyoda mustamlakachilik tugatilgani, lekin O‘rta Osiyo xalqlari hamon qaramligicha qolib, har kuni “erkin, baxtiyor davron” haqida qo‘shiqlar aytilayotgani to‘g‘risida ketdi.

Shunda uning ko‘zlariga qarab, qorachiqilaridagi og‘ir-mungdan hayratga tushdim. Birpasdan so‘ng u meni lol qoldirib, istiloachilik siyosati haqida so‘zlay ketdi. Shu-shu, Adham aka ikkimiz kabinetda yo tashqarida o‘zimiz qolsak, ozodlik, mustamlakachilik, shovinistik mavzularida gaplashadigan bo‘ldik. Bundan uncha hayratlanmasdim, chunki o‘zini qadrlaydigan, oq-qorani ancha-muncha ajratadigan har bir o‘zbek ziyolisi qanday tuzumda yashayotganini yaxshi bilardi. Lekin baribir Adham akaning siri anchagacha ochilmay qolaverdi...

Nihoyat bir voqea sabab bo‘ldi-yu, u kishining hayoti haqida gap ketib qoldi va Adham aka menga bir dasta qo‘lyozma keltirib berdi. U o‘zbekistonlik taniqli bir dramaturgga yozilgan maktub ekan. Bu maktubdan men Adham akaning otalari Muzaffar mingboshining nohaq ayblanib, surgun qilingani, otasining ammasi Xudoyorxonga, o‘zining opasi esa Shermuhammadbekka xotin bo‘lganini bilib oldim. Sirli odamning sirlariga qiziqishim yanada ortdi...

Asli qo‘qonlik Adham Muzaffarovning ota avlodi Porsin (keyinchalik Shohimardon deb atalgan) qishlog‘ini obod qilgan aka-ukalardan biri – Murodning qavmidan bo‘ladi. Katta bobosi Qobil qozi nomi butun Farg‘ona vodiysida mashhur bo‘lgan. Bobosi Muhammadjon qirq besh yil mingboshi lavozimida turgan. Dadasi – Muzaffarjon Muhammadjon o‘g‘li avval Qo‘qonda, so‘ng Buxoroda o‘n yil, Istanbulda uch yil tahsil ko‘rgan. Xalqning o‘zi uni mingboshilikka saylagan.

Adham akaning “sirli odam”ga aylanishidagi keyingi voqealar aslida o‘sha

davrdagi taloto‘plar, sovetning qattol siyosati bilan bog‘liq.

“Qizillar”ning ta’qibi tufayli Muzaffar mingboshi oilasi faqat Shohimardondan emas, balki butun Farg‘onadan bosh olib chiqib ketishga majbur bo‘ladi. O‘shanda Adham to‘rt yashar bola edi, ko‘p narsani bilmasdi, lekin aqlini tanigani sari voqealar oydinlashib boraverdi. Oila uzoq yillar

“– Nega tarjimaiy holingda o‘tmishni yashirding?

– Nimani yashiribman?
– O‘zingni go‘llikka solma! Nega otang, pochchang haqida bir og‘iz ham yozmading?
– Mana, yozganman-ku!
– Yozish bunday bo‘lmaydi! Bilmasang, yoz, men aytib turaman! “Otam – Muzaffar mingboshi, chor Rossiyasining amaldori,

yum yig‘laganida, ko‘ksini bir nima qattiq g‘ijimlab oldi.

Adham aka o‘z vazifasini ijro etish mobaynida sobiq tuzumning xufiyona ishlariga juda ko‘p duch keldi. KGB ko‘proq uyida arab hurufotidagi kitob saqlaganlarni, islomdan dars berayotgan domlarni tutib kelar va prokuraturaga ular ustidan jinoiy ish qo‘zg‘ashni buyurardi. Shunday dushman

“O‘TKAN KUNLAR”NI YOD BILGAN ADVOKAT

O‘zbekistondan olisda, avval Bishkek, so‘ng Jalolobodda yashashga majbur bo‘ldi. 1937-yilgi “qama-qama”lardan yurak oldirgan Muzaffar mingboshi xastalikka chalilib, 1938-yili vafot etadi.

Mingboshi o‘limidan oldin uyidagi arabiy harflarda yozilgan kitoblarning hammasini o‘tga tashlatadi. U garchi bor-mulkidan ajralgan bo‘lsa-da, qayerga ko‘chmasin, kitoblarini asrab-avaylab olib yurardi. O‘shanda o‘n uch yoshga to‘lgan Adhamning ko‘z o‘ngida ayasiga kitoblarni yoqishni buyurgan otasining yum-yum yig‘lagani-yu, ulkan golland pechida oltin suvi yuritilgan Navoiy “Xamsa”sining “oh-voh” chekayotganday chirsillab yonishi qolgan. Otasi faqat muqaddas “Qur’on”ni va yana uch-to‘rt kitobni yoqishga bermaydi. Yosh Adham esa Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” kitobini otasidan so‘rab oladi. Otasi bu kitob boshingga balo keltirmasin, deganida hech kim topolmaydigan yerga avaylab ko‘mib qo‘yishini aytib, bir amallab otasini ko‘ndiradi. Adham akaning keyinroq anglashicha, otasi “qama-qama”lar hademay ularning ham boshiga yetib kelishi, o‘zidan keyin bolalarining joni shu kitoblarni tufayli azobda qolmasligi uchun ularni o‘tga tashlattirgan ekan. Lekin baribir u o‘z hayoti farzandlariga xavf solishining oldini ololmadi. Bunga imkoni ham yo‘q edi. Chunki inson chumolicha qadrlanmaydigan jaholatli tuzumda odamning ishiga qarab emas, aksincha, otasi kim bo‘lgan-u, qarindoshlari kim o‘tganiga qarab baho berilardi.

Faqat otaning emas, opaning o‘tmishi ham Adham Muzaffar o‘g‘lini uzoq yillar davomida “Kommunistik partiya va Sovet davlati uchun ishonchga molik shaxs emas”ga aylantirdi. Garchi u sobiq tuzum davrida “Ulug‘ Vatan urushi” deb atalgan Ikkinchi jahon urushida jonini jabborga berib jang qilgan, kommunistik firqa safiga kirgan bo‘lsa-da!

opam Karomat – bosmachilar harakatining qo‘mondoni Ko‘rshermatning xotini...” Hm-m, Shermuhammadbek emish-a! Dushmanni buncha boshingga ko‘tarib hurmatlaysan?”

Qalam qaltiraydi, yurak titraydi, qog‘oz og‘riqdan “oh” chekaveradi. Adham yozganlariga qarayolmaydi, ko‘z oldi qorong‘ilashib ketaveradi. Umri davomida qalami qancha qaltiramadi, yuragi qancha titramadi. Bora-bora qo‘li ko‘nikib ketdi. Lekin yurak qurg‘ur hech ko‘nikmasdi. Bo‘lmasa, u shuncha voqealardan keyin ham sovet davlati adolatiga ishonadi, qo‘liga qurol olib, Ikkinchi jahon urushida jang qildi, og‘ir yaralandi.

Urushdan qaytgach, unga yana o‘tmishini eslatib qo‘yishdi. U ona yurtiga borolmay, Xo‘jandga keldi. 1946-yili Moskvadagi huquqshunoslik institutiga o‘qishga kirdi. Katta akasi Ko‘lob taraflarda edi. O‘qishni bitirgach, uni orqa qilib Ko‘lobga yo‘ldi. Uch yil Parxorda ishladi. Keyin yana Xo‘jandga qaytdi. 1985-yilgacha huquq organlarida mehnat qildi. Orada “Sen falonchining o‘g‘li, falonchining qaynisi ekansan”, deya bir-ikki yil ishdan bo‘shatishdi. Lekin o‘z ishining ustasi ekanimi, bilimimi, tajribali kadrlar yetishmasligi boismi yoki ayrim yaxshi odamlarning sharofati tufaylimi, tag‘in ishga chaqirib olishdi.

1952-yili akasini firqadan o‘chirishgach, bu haqda Xo‘jandga xabar yuborishdi. O‘shanda prokuror yordamchisi bo‘lib ishlayotgan yosh va serg‘ayrat Adhamni ham partiyadan o‘chirib, ishdan bo‘shatmoqchi bo‘lishdi. Uni urush qatnashchisi ekani asrab qoldi. Baribir hech qanday sababsiz qat’iy “hayfsan” berishdi.

U uyga shalviragancha qaytdi-yu, o‘ylandi. Otasi ko‘z o‘ngida paydo bo‘lib, goh “Farhod va Shirin”dan, goh “Saddi Iskandariy”dan so‘zlaganda ko‘ngli biron tashkin topdi. Lekin ota yana Navoiyning oltin suvi yuritilgan bebaho “Xamsa”sini o‘tga tashlashni buyurib, o‘zi bir chekkada yum-

izlashlar natijasida “qo‘lga olingan” “zararli diniy kitoblarni” yo‘q qilindi. Adham aka oyoq ostida ezilib yotgan, aslida ko‘pi diniy emas, devonlar, bayozlarni... aziz kitoblarni bildirmay olar va uyiga olib ketardi. Lekin aynan shu kitobdo‘stligi tufayli ham vaqti kelib baloga qoldi. 80-yillar boshida uning ustidan yozilgan “yumaloq xat”da uyida g‘arazli maqsadda diniy kitoblarni saqlayotgani ham aytilgan edi. Tekshir-tekshirdan so‘ng Adham aka Jaloloboddagi golland pechida yonayotgan Alisher Navoiy kitoblarini o‘rtanib eslab, yillar davomida to‘plab, asragan xazinasi – yuzdan ortiq kitobni Respublika Fanlar akademiyasiga yubordi... Keyinchalik esa “yumaloq xat” “ijodkori”ni bir so‘ksa, o‘zidan ikki ranjib yurdi.

– Shuncha yil huquq sohasida ishlab, nega qonunsizlik haqida gapirasiz, – deb so‘ragandim bir gal akadan.

– Bilasizmi, garchi men qonun asosida ish ko‘rgan bo‘lsam-da, undagi ko‘pgina moddalar menga qattiq azob berardi. Quruq tuhmatni dastak qilib otamni jazolashdi. Keyin bilsam, uni ayblashda tatbiq etilgan o‘sha modda qonunda umuman yo‘q ekan. Men 1933-yilda o‘g‘rilik uchun hatto o‘lim jazosigacha hukm qilingan, 1947-yilda arzimagan mevani yegani uchun odamlarni avaxtaga tiqib, davlat va jamoat mulkini o‘g‘irlagan, deb 25 yilgacha qamalanganlarga achinaman, – degandi Adham aka.

Adham Muzaffarov yaxshi ishlardi. Jinoyatchilikka qarshi halol va ayovsiz kurashardi. Lekin har gal davlat mukofotlariga kelganda, uni chetlatishardi. Qimmatbaho buyumlar bilan taqdirlashardi, lekin aslida unga berilishi zarur orden-medallar boshqalarning ko‘ksiga taqilardi. U temir nishonlarga o‘ch ham emas, zor ham emas edi. Faqatgina o‘ziga bildirilgan navbatdagi ishonchsizlikdan goh kuyib, goh kulardi.

Garchi oyog‘ida jang maydonida ortirilgan og‘ir jarohatlar bo‘lsa-da, unga urush nogironi guvohnomasini yillar davomida

sudrab-sudrab, faqat Tojikiston mustaqil bo‘lgachgina berishdi.

Mamlakatlarimiz qizil imperiya asoratidan qutulgach, Adham aka ochilib-sochilib gapiradigan bo‘lib qoldi. Lekin tashvishi yanada ortdi. “Bilasizmi, men odamlarimizda siyosiy, huquqiy madaniyatning pastligidan kuyinaman. Fitrat kabi olimlar asr boshida tushungan gaplarni biz hamon tushunmayapmiz. Ishoning, menga bir burda non va bir piyola suv bo‘lsa, bas. Moddiy ezilishga chidasa bo‘lar-u, lekin ma’naviy ezilishga chidash qiyin...”

Bu gaplarni menga saksonni qoralagan, boshidan ko‘p azob-uqubatlarni o‘tkazgan, 1942-yilda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”ini Farg‘onadagi polk maktabida bir necha kun davomida yoddan aytib bergan va ayni paytda nohaq qamalayotganlar sudida, tergovda qatnashib azoblangan, o‘zi bir necha roman, qissa va hikoyalar ijod qilgan va umrining salmoqli qismini tarjimaiy holini qayta-qayta yozishga sarflagan Adham aka – Muzaffar mingboshining kenja o‘g‘li aytdi. U rahmatli otasining katta salohiyati bo‘la turib Jaloloboddagi veterinariya stansiyasida santexnik bo‘lib ishlagini, ayrim odamlarning Shermuhammadbekni hamon “bosmachi” deb atayotganliklaridan kuyinib so‘zlagandi...

O‘zini hech qachon jadid deb atamagan, lekin jadidlar istagan ezgu ishlarni amalga oshirib yurgan Adham Muzaffarov haqidagi dastlabki maqolam 1992-yilda “Xalq so‘zi” gazetasida bosilgan edi. Oradan o‘n kuncha o‘tib ishxonamizga Adham aka kirib keldi. Matoga avaylab o‘ralgan kitobni ko‘rsatdi. U “O‘tkan kunlar” edi. Adham aka qaltis yillarda yer ostiga avaylab ko‘mib qo‘ygan, keyinchalik ko‘z qorachig‘idek asragan buyuk roman edi u. Lotin harflarida terilgan kitob. Men uni varaqlarkanman, Abdulla Qodiriyning o‘lmas asarini asrab-avaylagan va uni boshdan oyoq yod olgan, qarshimda ko‘zlarini yumib olgancha Otabekning Kumushga yozgan xatini berilib yoddan o‘qiyotgan insonning jasoratiga ham, hofizi xotirasiga ham qoyil qoldim.

Adham aka sakson yoshga kirib dunyodan o‘tdi. Shu yoshda ham kitobni ko‘zoynaksiz o‘qirdi. U kishi Xo‘jandning eng kuchli advokatlaridan biri edi. Shu bilan birga, viloyatga qaysi bir prokuror kelmasin, Adham akaning sohadagi tajribasi, huquqiy bilimlarni suv qilib ichganini eshitib, ishga taklif etardi. U kishi advokatlik bilan birga prokuror maslahatchisi bo‘lib ham ishlardi.

Mustaqillik davrida Adham Muzaffarovning yana bir orzusi ushaldi. U kishining romanlari va boshqa asarlari nashr etildi. Kitoblariga “O‘tkan kunlar... o‘tib ketmas”, deb nom berdi. Asarlaridan biri – hujjatli qissa “Armiya, front, tutqunlik va GULAGda 14 yil” deb ataladi. Bu asarning qahramoni chekkan azoblar o‘ta jonli tasvirlangan. Chunki muallifning o‘zi ham bundan kam dardni, ayniqsa ruhiy azobni boshidan kechirmagan edi.

Xo‘jand ko‘chalarida kezib yurarkanman, nogahon shundoqqina qarshimdan o‘ychan Muzaffar aka chiqib qoladiganday bo‘laveradi. U kishi buyuk Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”ini bir boshdan yoddan o‘qiy boshlaydi. Yonib-yonib o‘qiydi, asar oxiriga, Otabek avlodlari taqdiriga kelganda alamdan ovozi titraydi...

O‘rinboy USMON

Xo‘jand

JAHON AYVONIDA

TRAMP DUNYONI UCHGA BO‘LISH NIYATIDA

AQSh prezidentining so‘nggi harakatlari va bayonotlari uning dunyoni AQSh, Rossiya va Xitoy o‘rtasidagi ta’sir doiralarga bo‘lish istagidan dalolat berayotir. Bu haqda “The New York Times” xabar berdi.




“Trump Rossiya va Xitoy bilan bog‘liq kattaroq hodisani nazarda tutgan ko‘rinadi. Bu esa yakuniy kelishuv bo‘lishi mumkin. Ayrim tashqi siyosat tahlilchilarining aytishicha, uning harakatlari va bayonotlari u AQSh, Xitoy va Rossiyaning har biri yer sharining o‘ziga xos qismida hukmronlik qiladigan dunyoni tasavvur qilayotganini anglatadi”, deyiladi maqolada.

Nashr mualliflarining ta’kidlashicha, dunyoning bunday qayta bo‘linishi “XIX asr imperatorlik boshqaruvi uslubiga qaytish bo‘ladi”.

UCHINCHI JAHON URUSHI BILAN TAHIDID

Rossiyaning sobiq prezidenti Dmitriy Medvedev AQSh prezidenti Donald Trampning “Vladimir Putin olov bilan o‘ynashyapti” degan gapiga javoban qat’iy ogohlantirish bilan chiqdi.



Tramp o‘zining “Truth Social” ijtimoiy tarmog‘idagi sahifasida shunday yozgan edi: “Vladimir Putin tushunmaydigan narsa shuki, agar men bo‘lmaganimda, Rossiyaga juda yomon bo‘lardi. U olov bilan o‘ynashyapti!”

Rossiya xavfsizlik kengashi raisi o‘rinbosari, Putinning eng sodiq tarafdorlaridan biri sifatida tanilgan Medvedev “X” ijtimoiy tarmog‘ida unga keskin javob sifatida shunday yozgan: “Trampning Putin olov bilan o‘ynashyapti va Rossiyaga juda yomon bo‘lardi, degan so‘zlariga kelsak, men faqat bitta juda yomon narsani bilaman – bu Uchinchi jahon urushi. Umid qilamanki, Tramp buni anglab yetadi!”

RAFIQASI URGANINI INKOR ETDI

Fransiya prezidenti Emmanuel Makron Vetnamning Xanoy shahriga rasmiy tashrif chog‘ida mamlakatning birinchi xonimi uni shapatilangani aks etgan videoqa munosabat bildirdi. Bu haqda “ABC News” xabar berdi.



Muvaffaqiyatli parvozdan so‘ng uchoq eshigi yonida yuz qismi to‘liq ko‘rinmagan qizil kiyimli shaxs prezidentning yuziga tarsaki torgani tasvirga tushib qolgan.

“Rafiqam bilan hazillashib turamiz, bu video esa go‘yo geosiyosiy falokatga aylanib ketdi”, degan Makron jurnalistlarga.

SUN‘IY INTELLEKTGA INTEGRATSIYA QILINADI



Pavel Durov va Ilon Mask hamkorlik bo‘yicha kelishuvga erishdi: xAI kompaniyasining Grok chatboti Telegram foydalanuvchilariga taqdim etiladi.

Messenger orqali sotilgan xAI obunalaridan 50 foiz daromad “Telegram”ga tegishli bo‘ladi. Pavel Durov o‘z ilovasining pullik obunachilari soni 15 milliondan ortigani ma’lum qildi.

TEMIRTANLAR JANGI

Xitoyning sharqiy qismidagi Xanchjou shahrida ilk bor insonsimon robotlar o‘rtasida jangovar musobaqa o‘tkazildi.



“Mexanik jang musobaqasi” deb nomlangan tadbirda ishtirok etgan robotlar insonlarga xos mushlatlashish, apperkat (pastdan yuqoriga qo‘l bilan urish) va tepish kabi harakatlarini amalga oshirdi.

Turnir orqali robotexnika sohasini ommalashtirish maqsad qilingan. Mazkur tadbirlar robotlar futbolni va basketbolini ham o‘z ichiga olgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Xitoy 2025-yil yakuniga qadar 10 mingdan ortiq insonsimon robot ishlab chiqarishi va jahon bozorining yarmidan ko‘pini egallashi kutilmoqda.



MILLAT FIDOYILARI

1929-yil 6-noyabr.
Toshkent. Jadidlik harakati
peshqadamlaridan
biri Munavvar qori
Abdurashidxonov xonadoni.
Oqshom chog'i hovli atrofida
to'rt kishining sharpasi
izg'ib, sukunatni gurs-gurs
qadam tovushlari buzadi.
To'rtovlondan ikkitasi harbiy
formada, lekin el qatori
kiyinganlarining turqi sovuqroq
ko'rinadi.

Kutilmagan "yo'qlov" sababi-
ni hali so'rab ulgurmay, formalilardan biri qo'lidagini uy egalari peshonasiga niqtaydi: "Hibsga olish orderi". Uyda tintuv boshlanib ketadi. Sharpalardan biri tokchadagi noyob kitob, qo'lyozmalarga chang soladi, uyniing tekshirilmagan burchagi qolmaydi. Yana birovi "ayb"ga yetgulik dalil topolmagach g'azabi qo'zib, tintuvni tom ustida davom ettiradi. Uning qahrini tomga og'ir qadalayotgan qadamlardan payqash qiyin emas, aksiga, o'sha zamonii oyoq zarbidan faner qarsillab sinib ketib, zobit shiftdan yarimbel osilib qoladi. Tun chog'i sukunatni buzgan bunday shovqin-suron qo'ni-qo'shnilar yuragiga battar vahm solar, borgan sayin tintuvning dahshati atrofga yoyilardi.

Ertasi kuni ma'lum bo'ldiki, kechasi Toshkentda jami qirq nafar sobiq ulamo va eshonlarda hibsga olingan. Ular orasida Quduqboshi mahallasidan Olovuddin Maxsum, Xayriddinxon Eshon, Dukchi mahallasidan Abduvohid Qori, Eshonguzar mahallasidan Hasan qori, Eshonxo'ja domla, Oqmachit mahallasidan Muhiddin qori, Xonxo'ja Eshon va boshqa kishilar bor edi.

Bugun sahifamizda tarixning ana shunday eng og'ir, eng keskin burilish pallalarida xalq uchun yonib yashagan, ma'rifat va erkinlik yo'lida kurashdan aslo chekinmagan shaxslardan biri – Hasan qori Xoniy haqida so'z yuritamiz.

U haqda ko'plab qimmatli ma'lumotlar maxfiy hujjatlar orasida saqlanayotgan, 1931-yilga oid, P-33391 raqamli, 3 jildli "Hasan qori Xoniy to'g'risida" nomli hujjatda keladi, boshqa manbalarda aytilgan uchramaydi.

Hasan qori Xoniy 1887-yili Toshkent shahrida muallim Shorahim hoji oilasida tug'ilgan.

YURT QAYG'USI

"Millat onasi" degan nomga har qanday ayol ham munosib bo'la oladimi? Qurbonjon dodoxoh haqida bilasizmi? Unda keling, hammasini bir boshidan boshlaymiz.

1811-yil 22-may. O'sha yaqinidagi qirg'iz ovullaridan birida ayni Hayit kuni bir qizaloq dunyoga keladi. Unga Qurbonjon degan ism qo'yishdi. U yigirma yoshiga qadar oddiy oilaning qizlariday o'sgan bo'lishiga qaramay, nigohi o'tkir, aql jihatdan boshqalardan farqlanib turadigan, haq so'zni yuzaga chiqarish uchun harakat qiladigan g'ururli qiz bo'lib ulg'aygan. Ota-onasining qistoviga ko'ra, birinchi turmushini o'zi istamagan yigit bilan quradi. Majburiy nikoh uzoqqa cho'zilmadi. Keyinchalik u o'zi kabi dovyrak va dono, Oloy qirg'izlarining boshchisi – Olimbek dodoxohning nazariga tushib, unga yigirma bir yoshida turmushga chiqadi. Baxtli hayotining dastlabki yillarida besh farzandning onasi bo'lgan Qurbonjon zehni o'tkirligi tufayli erining maslahatchisiga aylandi. Ular yigirma to'qqiz yil birga umr kechirgandan so'ng Olimbek dodoxoh xon saroyning fitnachilari tomonidan qasddan o'ldiriladi. Dodoxohlik esa hukumat ishlaridan yaxshi xabardor Qurbonjonga o'tadi.

Bu fursatdan foydalanib qolish maqsadida Qo'qon xoni ko'chmanchi qirg'izlarga ham soliq sola boshlaydi. Adolatsizlikni payqagan ayol bunga qarshi chiqib, xalqini himoya qilish uchun kurashadi. Bu ayolning ovuldoshlari va butun qirg'iz qabilalari tomonidan hurmat qilinganini ko'rgan Qo'qon xoni unga rasman dodoxoh unvonini beradi. Yuqori salohiyatga ega zukko ayol boshqaruvining dovrug'i Buxoro amirigacha yetadi. Shu tariqa u birato'la ham Buxoro amirligining, ham Qo'qon xonligining yuqori lavozimiga tayinlanadi. E'tiborli jihati shundaki, xonlik va amirlik doimiy nizolar ostida bo'lgan. Bir vaqtning o'zida ikkala hukumatda ham birdek faoliyat olib borish faqat mahoratli dodoxohning qo'lidin keladi.

“AYBING SHUKI, ISTE'DODLISAN...”



XX asr o'zbek milliy matbuoti va yangi usuldagi milliy maktab asoschisi, yangi milliy teatr tashkilotchilaridan, ma'rifatparvar, jamoat arbobi Munavvar qorining ji'yani bo'ladi. O'z zamonasining kessa jadid ziyolilari orasida nihoyatda faol, ilg'or fikrli, harakati va intilishi bilan yoshlarni ortda qoldiradigan jonkuyar jadid ma'rifatparvarlaridan hisoblangan. "Turk adami markaziyat" firqasi tashkil topgan kezlarda, uning ilk a'zolaridan biri sifatida ro'yxatdan o'tgan.

Hasan qorining faoliyati faqat siyosiy maydon bilangina cheklanmagan. Tashkilotchilik, madaniy-ma'rifiy ishlar, kitob tarqatish va yosh avlodni o'qitish – bularning bari hayotining ajralmas qismi bo'lgan. Ayniqsa, Toshkentdagi mashhur "Turkiston kutubxonasi"ni boshqargan yillarida kitob do'konii orqali eng yangi kitob va gazetalarni butun Turkiston bo'ylab tarqatish bilan mashg'ul bo'lgan.

1910-1911-yillarda Toshkent, Qo'qon, Farg'ona, Namanganda ko'plab usuli jadid maktablari faoliyat olib boradi. Ularni tashkil etishda Munavvar qorining akalari A'zamxon va Muslimxon barobarida Hasan qori Xoniyning ham xizmatlarini alohida e'tirof etish joiz. U nafaqat yangicha ta'lim

g'oyalarini qo'llab-quvvatlagan, balki ularni hayotga tatbiq etishda ham faol ishtirok etgan. Hasan qorining bundan keyingi faoliyati bevosita jadid maorifini keng joriy etish, xalq orasida ma'rifat taraqqiyotini targ'ib qilish bilan bog'liq bo'lib, u tobora ziyolilar safida fikriy yetakchilardan biri sifatida tanila borgan.

1917-yilgi fevral inqilobidan so'ng yuzaga kelgan siyosiy muhitda ham u jadidlar safida turib, milliy manfaatlarni himoya qilishda davom etadi. "Turk adami markaziyat" firqasi tugatilganidan keyin Kommunistik partiyaning Toshkentdagi Eski shahar tashkilotiga a'zo sifatida qabul qilinadi. U qisqa fursat ichida shu tuzilmaning partiya komiteti raisi sifatida ish boshlaydi. E'tiborlisi shundaki, Hasan qori yuqori partiya organlaridan kelgan ko'r-satmalarni emas, balki mahalliy ijroiya hokimiyati – Toshkent Eski shahar ijroiya komitetining topshiriqlarini ustuvor deb bilib, o'z faoliyatini shu asosda tashkil etadi. Bu holat uning mustaqil fikrlovchi, xalq manfaatlarini birinchi o'ranga qo'yuvchi shaxs ekanini ko'rsatadi.

Uning partiyaviy faoliyati, ayniqsa, ilg'or jadidlarni partiyaga jalb etish va shuning vositasida ularni himoya qilish bilan alohida

ahamiyatga ega. Shu davrda Kommunistik partiya a'zo bo'lish uchun mas'ul xodimlar "Ittihad va taraqqiy" tashkiloti a'zolarining tavsiyasini talab qilgan. Hasan qori o'z xotiralarida bu haqda shunday yozgan: "Ittihad va taraqqiy" partiyasiga a'zo bo'lib kirgan paytimda, yaxshi tushundimki, partiya qabul qilishda insonning ijtimoiy kelib chiqishi, uning qay tabaqadan ekanii masalasiga juda katta ahamiyat berilar ekan". Bu fikr misolida Hasan qorining partiya tizimidagi ichki talab va tabaqaviy yondashuvga tanqidiy nigoh bilan qarab, ma'rifatparvarlar imkoniyatini kengaytirishga astoydil harakat qilgani ko'rinadi. Zero, jadidlar uchun insonning bilimi, shaxsiy fazilatlari va xalqqa qayishishi birinchi o'rinda turardi. Hasan qori Xoniy ana shu qadriyatlarga hamisha sodiq ish tutadi. Shu ma'noda uning faoliyati jadidlik g'oyalarini nafaqat madaniy-ma'rifiy, balki siyosiy maydonda ham yoritish va amalga oshirishga yo'naltirilgani bilan qimmatlidir.

Ko'p o'tmay siyosiy bosimlar tufayli Hasan qori Xoniy partiya komitetidan chiqib ketadi va xususiy faoliyatga o'tadi. O'sha yillarda mahalliy boylardan Normuhammad Normuhammedovning sarkori sifatida ish boshlab, u bilan birga Vladivostokka yo'l oladi. Ushbu safarni qahramonimiz hayotidagi o'ziga xos bosqich, yangi tajribalar, siyosiy va ijtimoiy muhitni chuqurroq anglagan davr sifatida baholash mumkin. Vladivostok Rossiyaning muhim iqtisodiy va harbiy nuqtalaridan biri bo'lgani holda Hasan qori uchun geografik, mafkuraviy jihatdan ham mutlaqo yangicha muhit edi. U yerdagi turmush tarzi, xalqlar o'rtasidagi munosabat, boshqaruv uslubi Hasan qorini ichki tahlilga undaydi. Shu orqali u nafaqat sovet tuzumining ichki ziddiyatlarini, balki o'zining va hammasiylarining qay darajada harakat qilish imkoni borligini chuqurroq anglay boradi.

Vladivostokdagi hayot Hasan qorini Toshkentdagi ma'rifiy muhitdan bir muddat uzgan bo'lsa-da, bu uzilish aslida uning o'z ildizlarini

teranroq his qilishiga, yanada qadrlashiga, jadidlik g'oyalarining nechog'li muhim ekanini anglashiga xizmat qiladi. Chunki tashqi muhitdagi tajriba odamni ichki dunyosi bilan yuzlashtiradi.

Hasan qori Xoniy 1922-yili Toshkentga qaytgach, endilikda mamlakat ma'rifiy hayotida oldingidan faolroq ko'rinish beradi. Bu qaytishda ko'z o'ngimizda ruhan boyib tajriba orttirgan, fikran toblangan, xalq xizmatiga kamarbasta shaxs yaqqolroq gavdalanadi. U o'zining eng yaqin muhiti – kitob va ma'rifat olamiga qaytadi. 1929-yilgacha O'zSSR davlat nashriyoti do'konida ishlaydi. Keyinroq internatlarning biriga ishga o'tarkan, u yerda ham katta hurmat, e'tibor, ishonch qozonadi.

Biroq bu ishonch, bu sadoqat uni ham qatag'on qilichidan omon saqlab qololmadi.

Hasan qori Xoniy 1929-yilning noyabr oyida qirq nafar ulamo, ma'rifatparvarlar qatorida hibsga olinib, avval Toshkent turmasida, keyin Moskvadagi Butirka qamoqxonasida ikki yil davomida ming bir azobga duchor qilinadi. Keyinchalik, Hasan qoriga "Milliy ittihad" deb atalgan millatparvar va aksilingilobiy tashkilot bilan aloqada bo'lgani, shu orqali sovet hokimiyatiga qarshi targ'ibot olib borganii kabi og'ir ayblovlar qo'yilib, 1931-yil 25-aprelda otuvga hukm qilinadi. Hukm o'sha kunning o'zidayoq ijro etiladi.

Hasan qori Xoniy shaxsiyatiga to'xtalar ekanimiz, davlat rahbarimizning qatag'on qurbonlari haqida "Ularning aybi – buyuk bo'lgani. Biz shu vaqtgacha tarixning o'zimizga yoqqan joylarini olib, yoqmagan tomonini yashirib o'tdik. Birovga yoqadimi-yoqmaydimi, g'ururimizni-armo-nimizmi, muvaffaqiyatni yo xiyonatni – hammasini haqqoniy yozish kerak", degan gapini eslaymiz. Zotan, Hasan qori shaxsi bir jadid o'larog' g'oyalariga sodiq, haqiqat yo'lida sobit, Vatanga muhabbati bilan yagona "ayb"i buyukligida ekanini isbotlab turadi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

BIRINCHI DODXOH AYOL



bo'lishadi. Zamonaviy qurol-yaroqqa ega bo'lgan ko'p askarli dushman butun boshli Turkiston o'lkasini bosib olganligi bois Qurbonjon dodoxoh o'jiz qoladi. Chunki kuchlar teng emas, oddiy xalq qo'lbola qurollar bilan maxsus tayyorgarlik ko'rgan qo'shinni yenga olmasdi. Shu sababli Oloy malikasi tinchlik sulhini tuzish uchun Mixail Skobelev yoniga boradi. Suhbatni xushmuomalalik ila boshlagan general: "Ey qancha mard o'g'illarning onasi, meni ham o'z o'g'ling deb bil!" deydi.

Skobelevning shartiga binoan dodoxoh o'g'illariga qarshilikni to'xtatish to'g'risidagi maktubni yozishga rozi bo'ldi. Evaziga uning barcha tarafdorlari, birinchi navbatda o'g'illari uchun xavfsizlik ta'minlanishi, shuningdek, yangi tashkil etilgan hokimiyatda boshqaruv lavozimlariga yaqinlari tayinlanishi lozim edi. Millat boshiga tushgan og'ir kunlarni his qilib turgan Qurbonjon o'z xalqi begona boshqaruvchilar qo'lida qolib ketmasligini istadi.

General rozi bo'ladi va keyin dodoxoh Oloy qirg'izlari yerlarini imperiyaga qo'shib olinganini noiloj rasman e'lon qiladi. Uning birgina maqsadi – tinchlik yo'li bilan murosaga kelish va aholini omon saqlab qolish bo'lgan. Shu tariqa Oloy hududida beshta volost tashkil topdi, ulardan to'rttasi: Kichi-Olay, Naukat, Gulchin va O'zgan – Qurbonjon dodoxoh shartiga ko'ra, uning o'g'illari Qamchibek, Mamitbek, Asanbek tasarrufiga o'tdi. Faqat malikaning to'ng'ich o'g'li Abdullabek Oloyga qaytmadi.

Bosib olingan yerlarni bo'laklarga bo'lib tashlash bosqinchii imperiyaning "Bo'lib tashla va egalik qil" shiorining amaldagi ko'rinishi edi. Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar, deganlariday birlasha olmaslik, Turkiston o'lkasining qaram bo'lib qolishiga olib keldi. Oloy hududlari bo'lib tashlanishidan oldin bo'ysindirilishi qiyin kechgan.

1893-yilda rus bo'lxona inspektori ikki qo'riqchi hamrohligida Qurbonjon dodoxoh o'g'illaridan biri – Qamchibekning uyiga tintuv o'tkazgani keladi. Bu ishlar mustabid hukumatning xiyilasi edi. O'sha vaqtda Qamchibek uyda bo'lmagan. Bo'xonachilar uning rafiqasida zargarlik buyumlari bor, degan bahona bilan o'rim sochini kesib, haqorat qiladi. Qamchibekning yordamchisi Akbalbon qasos olish maqsadida bosh qorovulni ham, uning sheriklarini ham o'ldiradi.

Bundan g'azablangan podsho hukumati 1895-yil 3-martda O'shning markaziy maydonida Qurbonjonning ko'z o'ngida suyuqli o'g'li Qamchibek va yordamchisini dorga tortadi. Bundan ko'zlangan asl maqsad dodoxohni ruhan sindirishi edi. Aytishlaricha, birinchi urinish muvaffaqiyasiz tugagan, arqon uzilib ketganini ko'rib turgan jabrdiyda ona jazoni bekor qilishni so'raydi. "Ana, ko'rdingmi, Xudoga ham xush kelmayapti bu!" deyishiga qaramasdan ijroni nazorat qiluvchi amaldor ikkinchi marta buyruq bergan. Onaizor shu vaziyatda bosh ko'tarib, xalqni zolimlarga qarshi qayrashga qodir edi. Ammo minglab odamlarning hayotini birgina jigarbandining joniga almashmadi. Shunda ham xalqning g'ururini ko'tarish uchun o'zida kuch to'plab, o'g'liga qarata "O'limga tik qara!" deya olgan.

O'g'lining favoti Qurbonjonga kuchli ruhiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada, u jamoatchilikni, mol-mulkini tashlab, uzlatga chekindi. Qahramonimiz O'sh yaqinidagi Madiy qishlog'idan qo'nim topdi.

Qurbonjon dodoxohning yurtsevarligi, aql-u zakovati, jasorati Turkistonning kelajak avlod qizlariga meros bo'lib qolajak.

Ro'za KARIMOVA,
mustaqil tadqiqotchi

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Mannon Ramziy Abdullayevich – 1895-yili Samarqand shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. O'zSSR Maorif xalq komissari Mannon Ramziy 1930-yili OGPU organi tomonidan hibsga olingan. "Milliy istiqlol" tashkilotining yetakchilaridan Botu, Oltoy va boshqalar bilan Sovet hukumatiga qarshi kurash olib borganlikda ayblangan. U aksilingilobchi, millatchi unsur sifatida qamoqqa olinib, 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

Abdurahim To'xtaboyev – 1898-yili Namangan rayoni G'alcha qishlog'ida tug'ilgan. To'raqo'rg'ondagi rus-tuzem maktabida o'qigan. 1918-yildan 1923-yilgacha RKP(b) a'zosi bo'lgan. Aksilingilobiy targ'ibot olib borganlikda, turli mish-mishlar tarqatganlikda, "Qizil O'zbekiston" gazetasida yozuvchi Cho'lpon va Julqunboyning maqolalarini tarqatganlikda, "Sovet hukumati o'zbek ziyolilarining eng yaxshilarini qamoqqa olmoqda va mustamlakachilik siyosatini yurgizmoqda, sovet lavozimlariga o'zbek xalqini e'zayotgan ruslardan qo'yilmoqda" deya tashviqot qilganlikda ayblangan. "Milliy ittihad" tashkiloti a'zolari Mo'min Rafiqov, Inom Nizomboyev va boshqalar bilan yaqin aloqada bo'lgani, jadidlik harakatida faol ishtirok etgani, Fayzulla Xo'jayevni maqtaganii, uyidan "O'tkan kunlar" kitobi topilgani uchun 1937-yil 14-noyabrda hibsga olingan. Bu vaqtda tayyorlov punkti-da ishlayotgan Abdurahim To'xtaboyev quloq, jadidlik harakati ishtirokchisi, "Milliy ittihad"ning sobiq a'zosi sifatida qoralangan. Shundan so'ng u O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 17-noyabrda hisoblangan. 1958-yil 28-fevralida reabilitatsiya qilingan.

Quadratulla Yunusov – 1896-yil Toshkent shahrida tug'ilgan. Butunittifoq kitob palatasida turk-tatar tillari bo'yicha tarjimon, katta bibliograf bo'lgan. Ma'lumoti oliy. U 1935-yilgacha partiya a'zosi edi. 1935-yili "Milliy istiqlol" tashkilotiga mansubligi uchun partiyadan o'chirilgan. 1937-yil 27-avgustda Davlat xavfsizligi komiteti tomonidan "Turk adami markaziyati", "Ittihad va taraqqiy" hamda "Milliy ittihad" tashkilotlarida faoliyat ko'rsatgani uchun hibsga olingan. "Milliy istiqlol"ning Moskvadagi filiali faol a'zosi bo'lganlikda, Sovet apparatini yot unsurlar bilan to'ldirish, tashkilot a'zolarini rahbarlik lavozimlariga qo'yish, 1931–1937-yillarda Moskvada o'zbek talabalarini millatchilik ruhida tarbiyalash va yangi alfavit komite-tida zararkunandachilik olib borish bilan shug'ullanganlikda ayblanib, O'zSSR Jinoyat kodeksining 58-, 63-, 64-moddalari bilan hibsga olingan. SSSR Oliy sudining 1938-yil 5 oktyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan sayyor sessiyasiga Quadratulla Yunusov otuvga hukm etilgan. Keyinchalik 1957-yil 1-avgustda reabilitatsiya qilingan.

Saidxon Shodmonov – 1903-yil Marg'ilon shahrida tug'ilgan. 1922-yildan Marg'ilon shahar konsomol komiteti kotibi vazifasida ishlagan. U Qo'qon shahrida partiya-sovet oliy maktabini tugatgan. Hujjatlarda qayd etilishicha, Saidxon Shodmonov 1925-yil tashkil etilgan "Haqiqat" aksilingilobiy tashkilot a'zosi, tashkilotning Marg'ilon, Shahrixon, Asaka, Bulung'ur, Bag'dod, Andijon shaharlaridagi bo'limlarida rahbarlik lavozimlarida xizmat qilgan. 1935–1937-yillarda Qoradaryo suv tizimi boshqarmasi boshlig'i atrofda aksilingilobiy targ'ibot olib borganlikda, Akmal Ikromov va Fayzulla Xo'jayevning "dumi" bo'lganlikda ayblanib, 1937-yil 13-sentyabrda 10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilingan. Jazoni o'tab, 1947-yilda qaytib kelgan. Ammo 1949-yilda yana Krasnoyarsk o'lkasiga surgun qilingan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).



1-IYUN – XALQARO BOLALARNI HIMOYA QILISH KUNI



KICHIKLARNING KATTA BAYRAMI

Bolalar... Ular haqida aytilaverib yod bo'lib ketgan gaplar bu kun yana va yana takrorlanajak. Biz, kattalar ham mana shu beg'uborlik bayrami bahona aqalli bir kun o'zimiz ham yosh go'dakka aylanamiz, qadrdon bola ko'nglimizga qaytamiz.

1-iyun – ona sayyoramizdagi milliardlab go'dakning xos kuni. Ular millatidan, irqidan, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar bu bayramga doxildirlar. Qaniydi, ularning har biriga dunyoni "issiq bir non kabi", "ol-alvon bir pufak", "ulkan bir olma kabi" bera olsak...

Bugun yer yuzida soatiga 18 ming bola tug'ilayotgan ekan, ular bilan birga kelajakning yangi rejaları ham ko'z ochayotir. Axir, bu degani har kuni 18 ming ehtimoliy ixtiro, har soatda 18 ming kashfiyot degani emasmi? Xo'sh, bizning bolajon O'zbekistonda-chi?

O'tgan yilning o'zida ona diyorimizda qariyb bir million go'dak dunyoga keldi. 14 yosh-gacha bo'lgan bolalar soni qariyb

11 million nafarga yetdi. Bir tasavvur qiling, ularning har biri bir sohaning yetuk vakili bo'lib yetishsa...

Aslida ham shunday. Bolalar tabiatan dahodirlar. Faqat ularni payqamoq, tarbiyalamoq, yo'naltirmoq, orzu qushlarini yuksak parvozlar sari ruhlantirmoq lozim. Davlatimiz rahbari aytgani kabi "Bolalarim ko'zidagi nurni ilg'ash kerak!"

Bugun minglab, millionlab bolani ota-onalari emas, mobil dunyo "tarbiyalayotgan"ini ko'ryapmiz. Bugun go'daklarimizning beg'ubor bolaligini sarobga aylantirayotgan g'ofil kattalarning jaholatiga ham guvoh bo'lyapmiz. Bugun o'z farzandini ayovsiz kaltaklayotgan bag'ritosh onalarni, o'z dilbandiga zug'um va zo'rovonlik qilayotgan bag'ritosh otalarni ham ko'ryapmiz. Ijtimoiy tarmoq ko'z oldimizda butun yer kurrasini globus kabi aylantirib, dunyoning har bir nuqtasidagi bor-yo'q holatni ayon qilmoqda...

Jo'mrakda oqib turgan suvni ishlatayotganimda, gaz plitasining murvati ochiq turgani esimga tush-

ganida farzandlarimga qoldirayotgan merosimizni o'ylayapman. Axir men eshitayotgan qushlar sayrog'ini ular ham eshitmog'ini, men hidlagan gullar hidini tuyumog'larini, hayotning menga bergan ne'matlaridan ular ham bahra olmog'ini juda-juda istayman. Dilbandlarim ham o'z zurriyotlariga bu ulug' marhamatni ulashsalar, deyman. Iqlimlar o'zgarmasa, havolar ifloslanmasa, suv ta'mini yo'qotmasa, olam esa bolalarning shodligiga chulg'ansa deyman...

1-iyun – qariyb 75 yildan buyon nishonlanib kelayotgan go'daklarning ulkan bayrami. Bu kun – dunyo xalqlari uchun bolalarni himoya qilmoq kuni. Ularning esa jajji qo'lchalarida havo to'ldirilgan pufaklar, ona mehriday shirin muz-qaymoqlar. Insoniyat ularni yaxshi ko'rmaslik qoshida ilojisizdir. Toki, gulg'nig'or qizaloqlar, baxtqanot bolakaylar bor ekan, BOLALIKni asrang, aziz odamlar! Keling, beg'ubor bolalikni har qanday balolardan himoya qilaylik va dunyoni bolalarga beraylik!

Muhayyo RUSTAMOVA

DILBANDLARGA GULQANDLAR

Bolalar kuni

*Bolalar kuni
Eng zo'r bayramim!
Xuddi shu kuni
Quv nab-yayragum!*

*Yig'lasa yig'lab,
Kulsa kulishib,
O'yinchoqlarin
O'ynab, bo'lishib,*

*Uchib arg'imchoq,
Yurak hovuchlab.
Yopib erinchoq
Fe'limni zichlab.*

*Kunim o'tar chog'
Zo'r qanotlanib.
Yaxshilik qilmoq
Uchun o'tlanib.*

*Shodlik, sho'xlikmi,
Shovqin, to'polon...
Urishmas hech kim,
Bolalar hayron!*

Umida ABDUAZIMOVA



Qanday yaxshi

*Men onamga gul terdim,
Singlimni ham unutmay.
She'r aytib, kuylab berdim
Ular rahmatin kutmay.*

*Singlimga atirgunning
Tikonlari yoqmad.
Qog'ozga o'rab berdim
Tikonlari chaqmad.*

*Gulchi xolaga borib,
Sotib oldim lolalar.
Singilni quvontirish
Qanday yaxshi, bolalar!*

Tadbirkor usta

*Buzilsa qay narsangiz,
Meni izlab borsangiz,
Tuzataman qotirib,
Teng yarmini ortirib.
Mendek asl ustadan
Bitta chiqar yuztadan!*

Tuyaning bo'talog'i

*Bo'talog'im arzanda,
Hammomni qilmas kanda.
Yozmi-qishmi to'r't fasl
Borib turar muttasil.
Kim yuvinsa yo'l ochiq,
Tayyor sovun va sochiq!*

Kim yashaydi?

*Boqsak, katta xonada
Qirqta kalish turpti.
Kim ekan qish pallada
Buncha bazm qurpti?*

Nurulloh OSTON



*Hayron bo'lib mo'ralab,
Qarasak u yoq-bu yoq,
Taxtachaga yozilmish:
"Bunda yashar qirqqoyq".*

Ehtiyot bo'li!

*Kelar bo'lsang bog'chadan,
Hazir bo'lg'in ko'chadan.
Ukang qo'lin tutib tur,
Yashil yo'lni kutib tur.
O'tkaz moshin qatorni,
So'ng olib o't Sattorni!*

TILBILIM



NOMSIZ BARMOQNING NOMI BOR

Borliqda hamma narsa o'z ismi bilan yaratilgan. Nimaningdir qanday atalishini bilmasligimiz uning nomsiz ekanini anglatmaydi.

Masalan, barmoqlarimizni olaylik. Ularning ham o'z oti bor: *boshmaldoq, ya'ni boshbarmoq*, keyingisi – *ko'rsatkich (shahodat) barmoq*, o'rta barmoq... *jimjiloq* (ba'zi shevalarimizda *chinaqay, chinaqoch, chinchaloq, chinachoch*).

Ha, nomsiz barmog'imiz ham bor-a. Shoshmang, nega nomsiz? Surishtirib ko'rsak, manaman degan tillarda ham ahvol bizdagidan pesh emas ekan. Masalan, rus tilida: *безымянный палец* – nomsiz barmoq; ingliz tilida: *ring finger* – uzuk (taqiladigan) barmoq; turk tilida ham shunday: *yüzük parmağı*...

Nahotki dunyodagi eng qadimiy va boy tillardan biri sanalmish o'zbek tili (turkiy til) bittagina barmoqni ifodalashga ojizlik qilsa? Yo'q, xulosa chiqarishga shoshilmaymiz. Axir bizda "Devonu lug'otit turk" bor!

Hazrat Koshg'ariyning yozishicha, jimjiloq ("Devon"da: jijaloq) yonidagi barmoq, ya'ni bizning nazdimizdagi "nomsiz" barmoqning ham o'z nomi bor: *jijamuq*.

Kitobda "Buni oz kishi biladi", deya izohlanganiga qaraganda, ming yil avval ham jijamuqni bizga o'xshab "nomsiz barmoq" deb bilganlar ko'pchilikni tashkil etgan bo'lsa kerak...

Elmurod NISHONOV

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Asqad Muxtor 1956-yillarning boshlarida yetimxonada birga o'sgan tengdoshlaridan birini uchratib qoladi. Ular qariyb yigirma yildan buyon ko'rishmagan bo'lsa-da, adib do'sti haqida uncha-muncha narsalarni eshitib yurgan ekan.

U asli tarix muallimi edi. 1941-yilda urushga ketgan. Keyin ko'p o'tmay, bedarak yo'qolgani haqida xabar kelgan. Urushdan keyin ma'lum bo'ldiki, u asirlikda emish. To'rt yil konslager dahshatlarini boshidan kechiribdi. G'alabadan keyin uning oilasiga xabar kelibdi: u ochlikdan chalayon holda gospitalga joylashtirilibdi. Ammo bir yil o'tar-o'tmas, Kolimada ekani to'g'risida xabar topishadi.

U ana shu tariqa o'n besh yillar chamasi do'zax azobini boshidan kechiribdi sho'rlik.

Gavdali, yuzlari to'lachadan kelgan bu odam ko'rinishidan bunday mushkulotlarga yo'liqqanga sira ham o'xshamasdi. Balki, u o'zining muqarrar taqdirini o'zgartirishga, imkonni boricha omon qolishga harakat qilgandir. O'nlab safdoshlarining



DO'ST...

o'limi, balki unga taqdir bo'lib ko'rinmagandir. Nima bo'lganda ham u o'zini omon saqlay olibdi. Qaysidir ma'hoda qismatni laqqa tushirib, muqarrar ko'rgilindan omon qolibdi.

Adib uni uyiga taklif qiladi. Axir orada yigirma yillik azobli sog'inch bor.

Yo'q, deb javob beradi adibning yoshlikdagi birodari, Qo'qon xonligining elchisi qabulxonamda kutib o'tiribdi... Siz ham boring. Xurosonda vaziyat og'ir...

Bobur ELMUROD
Facebook

HAJV



O'ziga Ali Fonus (Alfons) deb nom qo'yib olgan bir takasaltang o'zini bozorga solib, onasiga qaratadi: "Onam, umr savdosi deysiz, har qanday savdoni soqqa gullatadi" deb irpayib turgan joyi ekan. Bu iddao "Lo'm-lo'm, Mamajon" qo'shig'i ohangida kuylanadi.

Oq terakmi – ko'k terak, demang, onam,
Senga qanday qiz kerak, demang, onam.
Kallami bu yo' chekak, demang, onam,
Chelagi bolga botgan bo'lsa, okey.

Men istagan Chaynda, Shvedda yo'q,
Uning tovari biror brendda yo'q.
Chunki bugun chin sevgi trendda yo'q,
Tishni-tishga qo'yib kutgan bo'lsa, okey.

OKEY

Yomon kasal yomon bo'y – hiddan tarqar,
Mosovsirash shou-biznes, xitdan tarqar,
Hamma balo kuya tushgur IT'dan tarqar,
Nomzod ITdan chiqib ketgan bo'lsa, okey!

Sodda qizni qidirmang siz sodda bo'lib,
Pismiyoym chiqar oxir madda bo'lib,
Oqibatim pol quchmasin latta bo'lib,
Istakon labiga chertgan bo'lsa, okey!

Onaginam, bugun paqas soqqa kerak,
Soqqa sog'-u, nosog'-u, cho'ltogga kerak,
Kalbosh akam baxt uyini qurmoqqa kerak,
Yorim grin-karta yutgan bo'lsa, okey!

Mulla XUNOB yozib oldi.

*IT – sun'iy intellekt nazarda tutilgan bo'lsa kerak.

Jadid

Muassislar:



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI



"SHAHIDLILAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Dilmurod Do'stbekov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19739

Shundan:

Kirill yozuvida – 8 020

Lotin yozuvida – 11 719

Media kuzatuvchilar – 44 012

Buyurtma: G – 540.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:45
Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz